

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH INSTITUTI**

“QURILISHNI BOSHQARISH” FAKULTETI

“MENEJMENT” KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**mavzusi: IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA
KORXONA INVESTITSION FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH
YO‘LLARI
(“YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI” INJINIRING KOMPANIYASI
MISOLIDA)**

Ilmiy rahbar:

k.o‘q. Raximov Q.E.

Bitiruvchi:

5230200-Menejment(qurilish)

ta’lim yo’nalishi talabasi

Tadjiyeva S.X.

TOSHKENT – 2015

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I BOB. BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA INVESTITSION FAOLIYAT VA INVESTITSİYALARNI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	10
1.1. Investitsiya tushunchsi va uning mazmun mohiyati.....	10
1.2. Investitsiyalarni boshqarishni tashkil etishning nazariy – uslubiy asoslari	13
1.3. Investitsiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati.....	17
II BOB. “YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI INJINIRING KOMPANIYA” SI MOLIYAVIY VA IQTISODIY HOLATI TAHLILI.....	23
2.1. “YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI INJINIRING KOMPANIYA”SI tavsifi va uning tashkiliy tuzilmasi.....	23
2.2. “YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI INJINIRING KOMPANIYA”SI asosiy texnik – iqtisodiy ko’rsatkichlari tahlili.....	33
2.3. “YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI INJINIRING KOMPANIYA”Sida investitsiyalar samaradorligi tahlili.....	37
III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA KORXONA INVESTITSION FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO’NALISHLARI.....	47
3.1. Iqtisodiyotning modernizatsiyalash sharoitida korxona investitsiya faoliyatini rag’batlantirish.....	47
3.2. Korxonalarda investitsion faoliyatni boshqarish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	51
3.3. Qurilish korxonalarida investitsiya faoliyatini boshqarish tizimini takomillashtirish.....	54
XULOSA	57
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	61

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish bo'yicha hukumatimiz tomonidan katta iqtisodiy islohatlar olib borilmoqda. Bu islohatlarni amalga oshirish, o'z navbatida, katta miqdorda moddiy, moliyaviy, intellektual investitsiyalar manbalarini izlash, shakllantirish va umuman, O'zbekiston uchun yangi va qulay bo'lgan investitsiyaviy faoliyatni yo'lga qo'yishni taqozo etadi.

Davlatimiz hozirgi sharoitda ushbu jarayonni rivojlantirishga qaratilgan qator muhim chora-tadbirlarni muntazam amalga oshirib kelmoqda, xususan, investitsiya faoliyatini huquqiy asoslari ishlab chiqildi. Xorijdan jalb qilinadigan investorlar uchun turli kafolatlar beruvchi qonun va me'yoriy hujjatlar yaratildi va ular bozor iqtisodiyoti rivojlanib borishi bilan takomillashtirilib borilmoqda.

2014 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yil yakunlari bo'yicha 2014 yilda YAIMning o'sish sur'atlari 8.1% ni, inflyasiya darajasi esa 6.1% ni tashkil etdi¹.

2014 yilda Investitsiya dasturini amalga oshirish doirasida mamlakatimizda 13 milliard dollar qiymatidagi kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi, bu 2013 yilga nisbatan 11,3 foizga ko'pdir. O'zlashtirilgan kapital qo'yilmalar umumiy hajmining deyarli yarmini, ya'ni 47 foizini xususiy investitsiyalar – korxonalar va aholining shaxsiy mablag'lari tashkil etgani alohida e'tiborga loyiqdir.

Jalb etilayotgan investitsiyalarning asosiy qismi – 70 foizdan ortig'i, birinchi navbatda, ishlab chiqarish ob'ektlarini qurishga yo'naltirildi, eng yangi zamonaviy uskunalar xarid qilishga sarflangan investitsiyalar ulushi esa qariyb 40 foizni tashkil etdi.

Umuman olganda, mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiya kiritish hajmi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 23 foizdan iborat bo'ldi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanish yil yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlaiga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.// Xalq so'zi 2015 yil 17-yanvar N 11(6194) .

O'zlashtirilgan umumiy kapital qo'yilmalar hajmining 3 milliard dollardan ortig'ini xorijiy investitsiyalar tashkil etdi. Shuning 72 foizdan ziyodi yoki 2 milliard 200 million dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir.

Investitsiyalarni jalb qilish va moliyalashtirish ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Xalqaro va milliy darajada investitsiyalarni jalb qilish va moliyalashtirishda yetarli tajribalar mavjud. Investitsiyani moliyalashtirish asosan, mamlakatdagi iqtisodiy siyosat, qonunchilik, investitsiyani jalb qilish infratuzilmasining rivoji, darajasi va mamlakatning iqtisodiy ahvoliga bog'liq bo'ladi. Mamlakatimizda sifatli xomashyoning boy resurslari mavjudligi iqtisodiyotimiz uchun investitsiyalarni jalb qilish o'ta zarurligi va shu bilan birga, xom ashyo resurslar bazasini tayyor mahsulot ishlab chiqarishga qaratishimiz zarurligi yaqqol namoyon bo'lib turibdi.

Qurilish bozori erkin bozor munosabatlarining alohida sub'ekti sifatida, Respublikamizda ham iqtisodiy tizimni shakllanishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiyot tarmoqlaridagi islohotlarni boshqarish, ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish va iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish kabi muhim jarayonlar qurilish bozorining faol ishtirokiga asoslanadi.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining shakllanishi iqtisodiy o'sishining bir qator makroiqtisodiy omillarini keskin darajada kuchaytirilishini taqozo etadi. Bu soxada ro'y berayotgan jarayonlar voqealarning shiddatli almashinuvi bilan izoxlanadi. Mamlakatning iqtisodiy o'sishini qo'llab-quvvatlash va jadallashtirishda hal qiluvchi rolni ishlab chiqarish investitsiyalari o'ynashi kerak.

Hozirda rivojlangan investitsion faoliyatning yo'lga qo'yilishi hukumatimiz olib borayotgan oqilona investitsiya siyosatining natijalaridan biri ekanligini yurtboshimiz ta'kidlab o'tganidek, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish, eksport imkoniyatini kengaytirish sohasida belgilangan yo'nalishlar kuchli investitsiya siyosatini o'tkazish bilangina ro'yobga chiqadi.

I.A.Karimov «Biz oddiy bir haqiqatni doimo esda tutishimiz darkor. Ya'ni, sarmoyasiz taraqqiyot yo'q, ishlab chiqarishni va umuman, mamlakatimizni

modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni investitsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi» deb ta'kidladilar.

2014 yilda Investitsiya dasturi doirasida moliyalashning barcha manbalari hisobidan umumiy qiymati qariyb 2 milliard 700 million dollardan iborat bo'lgan 150 ta ishlab chiqarish yo'nalishidagi loyihani amalga oshirish ishlari nihoyasiga yetkazildi. Bular qatorida Toshkent issiqlik elektr markazida kogeneratsion gaz turbinali texnologiyani joriy etish; Janubiy O'rtabuloq – Muborak gazni qayta ishlash zavodi gaz quvurini va kompressor stansiyasini barpo etish orqali Somontepa va Janubiy O'rtabuloq konlarini to'liq jihozlash; «Angren» konini modernizatsiya qilish orqali Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasining 1-5-energiya bloklarini yil davomida ko'mir bilan ishlashga o'tkazish; «Angren» maxsus industrial zonasi hududida «Ohangaron» podstansiyasini rekonstruksiya qilish, «Bekobodssment» ochiq aksiyadorlik jamiyatida yangi liniya qurish hisobidan faoliyat ko'rsatayotgan ssment ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya qilish, “Quyuv-mexanika zavodi” sho'ba korxonasida metall quyishni rekonstruksiya qilish va boshqa yirik loyihalar borligini alohida qayd etish lozim.

Har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishi investitsiyalarni uzluksiz amalga oshirishni talab qiladi. Respublikamiz iqtisodiyotining jadal rivojlanishi eng asosiy omillardan biri bo'lgan investitsiya siyosatiga bog'liqdir. Investitsiya siyosatining samaradorligini ta'minlash iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlari va hozirgi kun talablariga javob beradigan mukammal investitsiya dasturini ishlab chiqishni talab etadi.

Shu bois ham mustaqillikning dastlabki kunlar investitsiyalarni, xususan, xorijiy investitsiyalarni ustuvor investitsiya loyihalariga jalb qilishga alohida e'tibor berildi. Investitsiya faoliyatining erkinligi va rivojlantirishini ta'minlash maqsadida uning huquqiy asosini mustahkamlash uchun «Investitsiya faoliyati to'g'ri isida»gi, «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi, «Chet ellik investorlari huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi. Bundan tashqari Respublikamiz Prezidenti tomonidan 2005 yil aprel

oyida«To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni va 2007 yil 20 iyulda "2007 - 2010 yillarda xususiylashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish va xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish chora - tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarorlari e‘lon qilindi.

Mazkur qonunlar va qarorlar xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni, xorijiy sheriklar bilan hamkorlikni mustahkamlashni va rivojlantirishni ustuvor investitsiya loyihalarini amalga oshirishni va mamlakatda investitsion faollikni oshirishni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan.

Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasining investitsion faoliyati, qurilish tarmo‘gi, barqaror rivojlanmoqda va mamlakat iqtisodiyotida muhim rol egallamoqda. Qurilish iqtisodiyotining barcha tarmoqlariga xizmat ko‘rsatib, asosiy fondlarni qayta ishlab chiqarish uchun sharoitlarni ta‘minlash, iqtisodiyotning maqbul tartibini barpo etish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni muvofiq joylashtirish, bo‘sh mexnat resurslarini ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etishga yordam bermoqda. Bu o‘rinda bozor iqtisodiyoti sharoitida mazkur tarmoq iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan qurilish korxonasi iqtisodiyotini amaliy jihatdan chuqur o‘rganish, muhim o‘rin tutadi.

Mamlakatimizning davlat investitsiya siyosati, investitsion faoliyatni boshqarish, takomillashtirish maqsadida uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan, investorlarning samarali ishlashi uchun barcha zarur shart- sharoitlarni yaratib berishga qaratilgan. Buning uchun O‘zbekistonda barcha imkoniyatlar bor, yani mamlakatimizning geografik joylashuvi qulay, transport tarmog‘i yaxshi rivojlangan, ishlab-chiqarish va ijtimoiy infratuzilma taraqqiy etgan, boy tabiiy resurslar hamda yuqori malakali kadrlar mavjud. Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimovning 2010-yil 15-dekabrda qabul qilingan va mamlakatimiz sanoatini barqaror, jadal va muvozanatli rivojlantirishga qaratilgan “2011-2015-yillarda O‘zbekiston Respublikasi sanoatni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi qarori mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonining mantiqiy

davomi bo'ldi. Mamlakatimiz sanoatini yuksaltirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbekistonda sarmoyadorlar uchun qulay investitsiya muhiti, imtiyoz va preferensiyalar tizimi yaratilgan. Iqtisodiyotimizga jalb etilayotgan xorij sarmoyasining yildan-yilga ortayotgani ahamiyatlidir. Xo'jalik subektlari va aholining investitsion faolligini oshirishga doir chora-tadbirlar ham korxonalarning o'z mablag'lari hisobidan investitsiyalar hajmini ko'paytirish imkonini berdi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti - Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qurilish korxonasi investitsion faoliyatini boshqarishni takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti - **“YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI INJINIRING KOMPANIYA”si**.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. **“YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI INJINIRING KOMPANIYA”si** misolida tahlil o'tgazish asosida respublikamizdagi qurilish korxonalarining investitsion faoliyatini boshqarishni takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat. Qo'yilgan maqsad quyidagi vazifalarni bajarilishini talab etadi:

- qurilish korxonasining investitsion faoliyatini boshqarish nazariyasi va mazmunini o'rganish;
- **“YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI INJINIRING KOMPANIYA”si** ning moliyaviy va investitsion holatini tahlil etish asosida samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash;
- O'zbekiston tijorat banklarida investitsiya loyihalarini boshqarishni tashkil etish amaliyotining tahlili;
- O'zbekistonda investitsiya faoliyatini boshqarish tizimini shu jumladan tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish.

Tahlil jarayonida davriy nashrlarda chop etilgan ilmiy maqolalarga, o'quv darsliklari va qo'llanmalari, xukumat idoralarining rasmiy saytlarida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda olib borilgan.

Bitiruv malakaviy ishi: Kirish, 3 ta bob, Xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

I **bobda** Zamonaviy investitsiya jarayonlarida investitsion faoliyatni boshqarish usullarini tutgan o'rni, investitsiya loyihasining xayot davri va uni boshqarish asoslari, investitsiya faoliyatini boshqarishni tashkil etishning nazariy asoslari xaqida, davriy nashrlarda chop etilgan ilmiy maqolalardan foydalanilish, mavzuga oid asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalarda keltirilgan nazariy fikrlarni qiyosiy tahlili keltiriladi.

II **bobda** “**YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI INJINIRING KOMPANIYA**”si bo'yicha amaliyot holati tahlilini amalga oshirish va tahlil natijalariga asoslangan holda investitsion faoliyatiga tegishli bajarilgan ishlar va ularga xulosalar shakllantirildi. Mazkur bobda o'rganilayotgan masalalarning qurilish tarmog'idagi xususiyatlari keltirilgan.

Yana tahlil jarayonida “**YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI INJINIRING KOMPANIYA**”si ning xukumat idoralaridagi rasmiy saytlarida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda olib borildi.

III **bobda** O'zbekistonda investitsion faoliyatni boshqarishni samaradorligini oshirish yo'llari, O'zbekistonda investitsiya faoliyatini boshqarish tizimini shu jumladan tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish, olib borilgan tadqiqotning tahlili asosida erishilgan natijalar va ilg'or xorijiy tajribalarni bayon etish va ularni mamlakatimizda qo'llash imkoniyatlari bo'yicha taklif, tavsiya xamda mavzuga oid zamonaviy asarlarda tadqiq etilayotgan mavzuni takomillashtirish yuzasidan bildirilgan fikrlar, tahlil jarayonida davriy nashrlarda chop etilgan ilmiy maqolalarga, xukumat idoralarining rasmiy saytlarida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda olib borilib ma'lumotlarni umumlashtirilgan holda bayon etiladi.

Malakaviy ishning xulosa va takliflar qismida qurilish tashkiloti yurtimizda investitsion faoliyatni boshqarish usullarini samaradorligini yo'llarini umulashtirilgan xulosalar va tahlil asosida keltirilgan taklif va tavsiyalar bilan bayon qilinadi.

Tadqiqot jarayonida "YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI INJINIRING KOMPANIYA"si ning 2012-2014-yillardagi hisobotlari va boshqa statistik malumotlari, xamda adabiyotlaridan foydalanildi.

I BOB. BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA INVESTITSION FAOLIYAT VA INVESTITSIYALARNI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Investitsiya tushunchsi va uning mazmun-mohiyati

Korxonalar xo‘jalik yuritish va ishlab chiqarish faoliyatining muhim jihatlaridan biri ishlab chiqarish va iqtisodiy salohiyatni rivojlantirish va saqlab qolishdir. Korxonalarning bu yo‘nalishdagi faoliyati investitsion faoliyat deb ataladi hamda “Investitsion faoliyat to‘g‘risida”gi qonun va boshqa huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Investitsiyalarni takomillashtirish va ulardan foydalanish, mamlakat va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning investitsion siyosati asosida amalga oshiriladi. Bu siyosat birinchidan, kapital qo‘yilmalarning ustuvor yo‘nalishlarini, ikkinchidan, ishlab chiqarish kuchlarini to‘g‘ri joylashtirish va rivojlantirish, uchinchidan, fan-texnika taraqqiyoti va butun iqtisodiyotning rivojlanishini belgilab beradi.

Investitsiya loyihasi kapitalni, korxonani, uning ishlab chiqarish quvvati va boshqa sifat ko‘rsatkichlarini kuchaytirish maqsadida rivojlantirish va kengaytirishga kiritishni rejalashtirish bo‘yicha chora tadbirlar majmuasidir. Investitsiya loyihasini tayyorlash va amalga oshirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- investitsiyaviy g‘oyani shakllantirish;
- g‘oyaning dastlabki asoslanishi;
- loyihada ko‘zda tutilgan texnik qarorning taxlili;
- sertifikat talablarining bajarilishini tekshirish;
- investitsiya loyihasi bo‘yicha davlat boshqaruv idoralari bilan kelishuvni yuzaga keltirish;
- axborot memoranzumini tayyorlash.

Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning mustaqilligini ta‘minlash bilan bir

qatorda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish taraqqiyotimizning muhim tamoyillaridan biri bo'lib qolmoqda. Ma'lumki, ijtimoiy sohaning rivoji bilan bog'liq masalalarni yechish noishlab chiqarish sohasi tarmoqlari zimmasiga yuklatilgan. Oxirgi yillarda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik yo'nalishdagi taraqqiyoti noishlab chiqarish sohasi rivojining tezlashuviga olib keldi. Mamlakatimizda ham bu sohada investitsiyalarning o'sishi kuzatilmoqda. 2014 yilda jami investitsiyalarning 73 foizi ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan. Jumladan, qariyb 40 %i mashina va uskunalarni harid qilishga sarflandi.

2014 yilda Investitsiya dasturi doirasida moliyalashning barcha manbalari hisobidan umumiy qiymati qariyb 2 milliard 700 million dollardan iborat bo'lgan 150 ta ishlab chiqarish yo'nalishidagi loyihani amalga oshirish ishlari nihoyasiga yetkazildi. Bular qatorida Toshkent issiqlik elektr markazida kogeneratsion gaz turbinali texnologiyani joriy etish; Janubiy O'rtabuloq – Muborak gazni qayta ishlash zavodi gaz quvurini va kompressor stansiyasini barpo etish orqali Somontepa va Janubiy O'rtabuloq konlarini to'liq jihozlash; «Angren» konini modernizatsiya qilish orqali Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasining 1-5-energiya bloklarini yil davomida ko'mir bilan ishlashga o'tkazish; «Angren» maxsus industrial zonasi hududida «Ohangaron» podstansiyasini rekonstruksiya qilish, «Bekobodssment» ochiq aksiyadorlik jamiyatida yangi liniya qurish hisobidan faoliyat ko'rsatayotgan ssment ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya qilish, “Quyuv-mexanika zavodi” sho'ba korxonasida metall quyishni rekonstruksiya qilish va boshqa yirik loyihalar borligini alohida qayd etish lozim.

Bundan tashqari, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash bo'yicha qabul qilingan bir qator davlat dasturlari, aholining munosib turmush darajasini ta'minlashga qaratilgan hukumat tadbirlari ijtimoiy sohaning isloh qilinishiga olib keldi, bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan minglab binolarning qurilishini taqozo etmoqda.

Avvalo, ilmiy tadqiqotlar davomida binoning me'yoriy sifat ko'rsatkichlari aniqlanadi. Aynan marketing sohasiga oid ilmiy izlanishlar natijasida

iste'molchilar ehtiyojlari va bozor konyunkturasini hisobga olish imkoniyati tug'iladi. Bunda iste'molchi talablari ham me'yoriy talablarga kiritiladi. Loyihalash va qurilish bosqichlarida sifat belgilari shakllanadi va ekspluatatsiya bosqichlarida namoyon bo'ladi. Shuningdek, bu bosqich davomida binoning sifati o'zgarib boradi. Binodan amalda foydalanish sharoiti uning sifatining me'yoriy darajada uzoq vaqt saqlanib turishiga yoki aksincha muddatidan oldin pasayishiga sabab bo'ladi. Iste'mol davri davomida binoning sifati pasayib borib, ekspluatatsiya bosqichining oxirida undan foydalanish xavfsizlik nuqtai nazaridan yoki iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'lib qoladi. Natijada, bu binoni yo'qotish zaruriyatini vujudga keltiradi.

Shunday qilib, noishlab chiqarish binolari ekspluatatsiyasi bilan bog'liq axborotlarga ega bo'lgan buyurtmachi ikki tomonlama afzallikka ega bo'ladi. Iste'molchining vakili sifatida u minimal moddiy va mehnat resurslarini sarf etgan holda binolarning sifati me'yoriy darajada bo'lishini ta'minlashga erishadi, vositachi sifatida esa o'z xizmatlariga bo'lgan talabning oshishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasining **“Investitsiya faoliyati to'g'risida”gi** qonuni (yangi tahriri)ning **3-moddasida investitsiyaning asosiy tushunchalari sifatida** quyidagilar qo'llaniladi²:

investitsiyalar — qonun hujjatlarida taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat ob'ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar;

investor — investitsiya faoliyati ob'ektlariga o'z mablag'larini investitsiya qilishni va boshqa investitsiya resurslarini jalb etishni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati sub'ekti;

investitsiya majburiyati — investitsiya loyihasida nazarda tutilgan muayyan maqsadlarga erishish uchun investorning o'zi qabul qiladigan majburiyati;

² O'zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to'g'risida”gi qonuni

investitsiya faoliyati — investitsiya faoliyati sub'ektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmui;

investitsiya faoliyati ishtirokchisi — investorning buyurtmalari bajarilishini ta'minlovchi investitsiya faoliyati sub'ekti;

reinvestitsiyalar — investitsiyalardan olingan, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat ob'ektlariga kiritiladigan har qanday daromad, shu jumladan foyda, foizlar, dividendlar, royalti, litsenziya va vositachilik haqi, texnik yordam, texnik xizmat ko'rsatish uchun to'lovlar hamda boshqa shakldagi mukofotlar.

1.2. Investitsiyalarni boshqarishni tashkil etishning nazariy-uslubiy asoslari

"Investitsiya loyihasini boshqarishni tashkil etish" uni samarali boshqarish uchun zarur shart-sharoit, zamin yaratishdan iborat. Buning uchun esa, avvalo investitsiya loyihasini boshqarish tushunchasining tizim mohiyatiga egaligini bilish lozim. Bu tizim tarkibiy jihatdan quyidagi asosiy qismlardan iborat:

- boshqarish sub'ektlari;
- boshqarish ob'ektlari;
- loyihaning amalga oshirilishini boshqarish jarayoni.

Loyihani boshqarish sub'ektlari - loyihani amalga oshirish jarayonida boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilishda o'zaro aloqada bo'ladigan loyihaning aktiv ishtirokchilari hisoblanadi. Ularga loyihaning asosiy (muhim) ishtirokchilari va loyihani boshqarish jamoasi kiradi.

Loyiha administratori turli xil ma'muriy masalalarni xal qiladi va bu vazifadan loyiha rahbarini ozod qiladi. Loyiha jamoasi shaxsan loyiha menejerining o'zi tomonidan tuziladi.

Boshqarish tizimi ob'ektlariga esa:

- dasturlar;
- loyihalar;

-shartnomalar;

-boshqarish ob'ektining hayot davrlari kiradi.

Loyihaning bajarilishini boshqarish jarayoni boshqarish sub'ektlari va ob'ektlari o'rtasidagi aloqalar vositasida amalga oshadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Boshqarish darajalari:

strategik daraja - u loyihaning butun hayot davrini qamrab oladi;

boshqarishning yillik darajasi - loyihaning yil davomida amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlari ko'rib chiqiladi;

boshqarishning choraklik darajasi - loyihaning chorak davomida amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlari ko'rib chiqiladi;

boshqarishning tezkor (operativ) darajasi - loyihaning oy, hafta, kun, smena va h.o.lar davomida amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlari ko'rib chiqiladi.

2. Boshqarish funksiyalari *rejalashtirish, tashkil etish, ishlarning borishini nazorat qilishni* o'z ichiga oladi.

3. Boshqarishning quyi tizimlari:

-loyihaning predmet sohasini boshqarish;

-loyihani vaqtli parametrlar bo'yicha boshqarish;

-loyiha qiymatini boshqarish;

-loyiha sifatini boshqarish;

-loyiha risklarini boshqarish;

-loyihadagi xodimlarni boshqarish;

-loyiha kommunikatsiyalarini boshqarish;

-loyiha shartnomalarini boshqarish;

-loyihadagi o'zgarishlarni boshqarish.

Quyi tizimlarning loyihani boshqarish funksiyalaridan farqi shundaki, quyi tizimlar loyihaning predmet sohasiga, funksiyalar esa maxsus jarayonlar va uslublarga qaratilgan bo'ladi. Quyi tizimni boshqarish barcha funksiyalarni bajarishni o'z ichiga oladi.

4. Boshqarish jarayoni bosqichlari:

- loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish;
- loyiha ishlarini rejalashtirish;
- loyiha ishlarini tashkil etish va bajarilishini nazorat qilish;
- loyiha ishlarining borishini tahlil qilish va muvofiqlashtirish;
- loyiha va uning qismlarini yopishdan iborat.

5. Loyihalarni boshqarish uslublari:

- loyiha maqsadlarini belgilash va uni asoslash;
 - loyiha tuzilmasini aniqlash (quyi maqsadlar, amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarning asosiy bosqichlari);
 - moliyalashtirishning zarur hajmlari va manbalarini aniqlash;
 - ijrochilarni tanlash - xususan tanlovlar orqali;
 - shartnomalar tayyorlash va tuzish;
 - loyihani bajarish muddatlarini aniqlash, uni amalga oshirish grafigini tuzish, zarur resurslarni hisoblab chiqish;
 - loyiha smetasi va byudjetini hisoblash, rejalashtirish va risklarni hisobga olish;
 - loyihaning ijrosi ustidan nazoratni ta'minlash imkoniyatini beradi.
- Loyihalarni boshqarishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:
- ehtimoli bor risklarni hisobga olgan holda loyiha maqsadlari, natijalari va ishlarini aniq belgalash;
 - loyiha va uning alohida qismlari uchun javobgarlik markazlarini taqsimlash;
 - ishlarni kompleks rejalashtirish tizimini yaratish;
 - loyiha ijrosining borishini nazorat qilish, tahlil qilish va boshqarish tizimini yaratish;
 - loyiha jamoasini tayyorlash va loyihaga jalb etilgan barcha ijrochilar faoliyatini birlashtirish va muvofiqlashtirish maqsadida uni boshqarish.

Investitsiya loyihalarini boshqarishni tashkil etishga uning ishtirokchilari nuqtai-nazaridan ham yondoshish mumkin. Chunki yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, investitsiya loyihasini boshqarish alohida tizim bo'lib, u boshqaruv sub'ekti sifatida tijorat banklarini ham o'z ichiga oladi. Tijorat banki investitsiya

loyihasini amalga oshirishda asosan kreditor yoki investor sifatida ishtirok etadi. Shuningdek, u investitsiya loyihasida investitsiya krediti yoki loyihaviy moliyalashtirish shaklida ishtirok etishi mumkin. Ammo, investitsiya kreditidan farqli o'laroq, loyihaviy moliyalashtirishda kredit resurslarini so'ndirish manbasi loyiha ekspluatatsiyasidan tushadigan pul oqimlari hisoblanadi. Ya'ni, loyihaviy moliyalashtirishning mohiyati shundan iboratki, moliyalashtirish ob'ekti korxonaning umumiy ishlab chiqarish xo'jalik faoliyati emas, balki muayyan bir investitsiya loyihasi hisoblanadi.

Loyihaviy moliyalashtirishning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- loyiha uchun alohida tashkil etilgan iqtisodiy birlik - mustaqil kompaniyaning mavjudligi;
- risklarning loyiha ishtirokchilari (ya'ni, uskuna yetkazib beruvchi, kreditor, xaridor, loyiha tashabbuschisi) o'rtasida taqsimlanishi;
- ekspertiza paketi bilan birgalikda batafsil ishlab chiqilgan biznes-rejaning mavjudligi;

Investitsiya talabgori bankning kreditor va loyiha tashkilotchisidan biri sifatida qo'yadigan asosli talablarini tushunishi lozim. Bular:

- loyihaning iqtisodiy, moliyaviy, texnik, ekologik, tashkiliy-huquqiy tijorat va marketing ekspertizasini o'tkazish hamda biznes-reja ishlab chiqish;
- loyihani moliyalashtirish buyurtmasini ko'rib chiqish davrining tijorat kreditidagiga nisbatan uzoqroq davom etishi;
- loyihani tashkil qilish va ko'maklashish xizmatlari uchun bankka komissiya mukofoti to'lash;
- loyihaga investitsiya talabgori aktivlarining ham jalb qilinishi;
- investitsiya jarayonining barcha bosqichlarida investorlar, kreditorlar tomonidan loyiha bo'yicha qattiq monitoring yuritilishi.

Investitsiya loyihalari bilan ishlashda tijorat banklarining asosiy vazifalari:

- investitsiya loyihalarini tahlil qilish va baholash;
- investitsiya loyihalarini moliyalashtirish;

- investitsiya loyihasiga yo‘naltirilgan mablag‘larning sarflanishini nazorat qilish;

- investitsiya loyihasini moliyalashtirish uchun ajratilgan kreditlar va ularga hisoblangan foizlarning qaytarilishi bo‘yicha monitoring yuritishdan iborat. Shunday ekan tijorat banklarida ushbu vazifalarning samarali bajarilishini ta‘minlash, ya‘ni investitsiya loyihalarini boshqarishni to‘g‘ri tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi.

Tijorat bankida investitsiya loyihasini moliyalashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilish jarayonini tashkil etish asosiy tamoyillarga - xolislik, tezkorlik va samaradorlik tamoyillariga asoslanishi lozim.

1.3. Investitsiyalarning mazmuni va iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qulay investitsion faoliyatni shakllantirish mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining muhim asoslaridan biri hisoblanadi. U kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, ilmiy-texnika taraqqiyotining o‘sish sur‘atlari va ko‘lamiga faol ta‘sir ko‘rsatadi, aholi salmoqli qismining bandligini ta‘minlashga sharoit yaratadi. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar, mamlakatdagi ishlab chiqarish kuchlarining oqilona joylashtirilishi va rivojlanishi ko‘p hollarda investitsiya faoliyatining darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Yangi ishlab chiqarish quvvatlarini va asosiy kapitallarni yaratish hamda amalda faoliyat yurituvchilarini qo‘llash uchun yo‘naltirilgan kapital qo‘yilmalarining ancha qismi investitsiya sohasi orqali o‘tishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta‘kidlab o‘tganidek: «Investitsiya bazasini rivojlantirish va chuqurlashtirish islohotlarimiz strategiyasining juda muhim shartidir. Iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish,

eksport imkoniyatini kengaytirish sohasida belgilangan yo‘nalishlar kuchli investitsiya siyosatini o‘tkazish bilangina ro‘yobga chiqadi».³

O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya to‘g‘risida”gi qonunida ko‘rsatilishicha, “investitsiya bu - iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag‘lari, banklarga qo‘yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog‘ozlar (aksiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir”.

Investitsiya siyosati har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida eng muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki shu siyosat orqali mamlakat ishlab chiqarish quvvatining yuqori darajada o‘sishi, ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi va sifatining ortishi, moddiy va ma‘naviy ehtiyoj qondirilishi, butun davlat infratuzilmasining rivojlanishini ta‘minlash mumkin. Hozirgi zamon investitsiya siyosati iqtisodiy tuzilmani o‘zgartirishni amalga oshiruvchi asosiy dastak bo‘lib, qishloq xo‘jaligini zamonaviylashtirish, tabiiy resurs va hududlarni o‘zlashtirish, aholini ish bilan ta‘minlash, fan-texnikani rivojlantirish, ekologik muammolarni bartaraf etish kabilarni hal etishga qaratilishi kerak.

Investitsiya sohasi hozirgi sharoitda bozor iqtisodiyotining milliy va jahon darajasiz mavjud bo‘lishi mumkin emas. Horijiy investitsiyalardan foydalanish mamlakat iqtisodiyotining xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki va tadbirkorlikning erkin tarmoqlariga kapitalning oqib o‘tishi tizimi bilan shartlashgan ob‘ektiv zarurat hisoblanadi⁴. Yana shuni alohida qayd etish muhimki, investitsiya siyosiy, iqtisodiy huquqiy kafolatlangan sharoitdagina samarali natija berishi mumkin. Ayniqsa, bozor munosabatlariga o‘tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda davlat investitsiya jarayonining bosh tashkilotchisi bo‘lish va uning asosiy vazifasi bo‘lgan ijtimoiy siyosat nuqtai-nazaridan bosh investor bo‘lishi zarur.

B.Tursunov tomonidan «Investitsiyalar (nem. Investition, lot. investio) – bu sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, qurilish va xo‘jalikning boshqa tarmoqlariga

³Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. –Т.: Ўзбекистон, 1998, 58-б.

⁴Шодмонов Ш.Ш., Гафуров У.В. «Иқтисодиёт назарияси». -Т., «Фан ва технология». 2009. 277-бет.

uzoq muddatli qo'yilma shaklida amalga oshiriluvchi sarf-xarajatlarning yig'indisidir»⁵ deb, investitsiya mablag'lari kiritiluvchi sohalar tarmoq nuqtai-nazaridan alohida ta'kidlab o'tiladi.

D.Tojiboeva investitsiyalarni quyidagicha ta'riflaydi: «Investitsiya deganda kelajakdagi natija uchun: ishlab chiqarishni kengaytirish yoki rekonstruksiya qilish, mahsulot va xizmatlarni sifatini yaxshilash, malakali mutaxassislar tayyorlash va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishga mo'ljallangan moliyaviy resurslar tushuniladi»⁶. Bundan ko'rinadiki, muallif mazkur ta'rifda investitsion faoliyat yo'nalishlariga urg'u berib o'tadi.

Shuningdek, ba'zi manbalarda «Investitsiyalar – xususiy sektor va davlat tomonidan mamlakat ichida va uning chegarasidan tashqrida iqtisodiyotning turli tarmoqlari va qimmatli qog'ozlarga kapitalning uzoq muddatli qo'yilmasi»⁷ sifatida qaralib, oldingi ta'riflardan farqli o'laroq, portfelli (ya'ni, qimmatli qog'ozlarga joylashtirilgan) investitsiyalar ham ko'rsatib o'tiladi.

Ba'zi manbalarda investitsiyalarni amalga oshirishning asosiy maqsadini ochib berishga harakat qilingan ta'riflar ham uchraydi. Jumladan, «Investitsiyalar (lot.Investire kiyintirmoq; ingl.investment) - qo'shimcha foyda olish yoki obro'-e'tiborga ega bo'lish maqsadida, yoki mablag'larni bunday tarzda qo'yish bu sohada o'z operatsiyalarini olib borishga qaraganda ancha foydaliligi sababli kapitalni qandaydir huquqiy jihatdan mustaqil bo'lgan korxonalarga uzoq (bir yildan kam bo'lmagan) muddatga joylashtirish»⁸ deb qaralishi bunga yaqqol misoldir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiya faoliyatining maqsadi bo'lib tadbirkorlik daromadi yoki foizni olish hisoblanadi. Investitsiyalar ularning qaysi soha yoki ob'ektga qo'yilishi hamda kapitalning ishlab chiqarishdagi ishtirokidan kelib chiqqan holda moliyaviy va real investitsiyalarga bo'linadi.

⁵ Турсунов Б.М. Внешнеэкономическая деятельность и привлечение иностранных инвестиций. Курс лекций. -Т.: «Узбекистан», 2008. с.-45.

⁶Тожибоева Д. “Иқтисодиёт назарияси”: 2-китоб: Олий ўқув юртлари талабалари учун ўқув қўлланма. -Т. «Шарқ», 2008, 79-б.

⁷ Экономическая теория: Учебник. – Изд., испр. и доп. / Под.общ. ред. акад. В.И.Видяпина, А.И.Добрынина, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. – М.ИНФРА-М, 2011, с. 422.

⁸ Иностранные инвестиции. В кн.: Л.Н.Павлова. Финансы предприятий. –М., 2009. –с. 171.

Moliyaviy investitsiyalar davlat va xususiy kompaniyalar tomonidan chiqarilgan aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar, shuningdek, tezevratsiya ob'ektlari, bank depozitlariga uzoq muddatli qo'yilmalarni ifodalaydi. Shuningdek, ba'zi manbalarda moliyaviy investitsiyani qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni o'z ichiga oluvchi xalqaro moliya-kredit faoliyati sifatida ko'rsatiladi. Fikrimizcha, bu jarayonga faqat xalqaro darajadagi faoliyat sifatida qaralishi noto'g'ri hisoblanadi.

Moliyaviy investitsiyadan farqli o'laroq, real investitsiyalar asosiy kapital hamda material ishlab chiqarish zahiralarning o'sishiga qo'yilmani aks ettiradi.

Rivojlangan mamlakatlarda real investitsiyalarning aksariyat qismini xususiy investitsiyalar tashkil etadi. Iqtisodiyotning davlat sektorida kapital real investitsiyalar orqali, shuningdek, kredit, subsidiyalar berish yo'li bilan iqtisodiy tartibga solish siyosati asosida qo'yiladi. Davlat investitsiyalari eng avval infratuzilma tarmoqlariga yo'naltiriladi. Investitsiyalarning samaradorligi, odatda, faol elementlarning ulushi o'sishi bilan oshib boradi.

Keng ma'nodagi tushuncha sifatida tadbirkorlik ob'ektlariga va faoliyatning boshqa ko'rinishlariga qo'yiluvchi mol-mulk va intellektual qiymatliklarning barcha turlari investitsiya bo'lib hisoblanib, ularning natijasida foyda olinadi yoki ijtimoiy samara qo'lga kiritiladi.

«Investitsiya» so'zining bunday talqin etilishida, samara keltiruvchi qiymatliklar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- pul mablag'lari, maqsadli bank omonatlari, paylar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar;
- harakatlanuvchi va ko'chmas mulklar (bino, inshootlar, asbob-uskunalar va boshqa moddiy qiymatliklar);
- mualliflik huquqidan kelib chiquvchi mulkiy huquq, «nou-xou» va boshqa intellektual boyliklar;

-yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqi, shuningdek, mulkiy huquqlar va boshqalar⁹.

Davlat, yuridik shaxslar va fuqarolarning investitsiyalarni amalga oshirish bo'yicha barcha amaliy hatti-harakatlarining yig'indisi investitsiya faoliyatini tashkil etadi. Xususan, qarzga olingan va jalb etilgan mulkiy va intellektual boyliklarni investitsiyalashning u yoki bu ob'ektlariga qo'yish to'g'risidagi qarorini investitsiya faoliyatining sub'ektlari (investorlar) qabul qiladilar. Investitsiya faoliyatining sub'ekti bo'lib investor yoki bir necha investorlar – tadbirkorlik yoki boshqa faoliyat ishtirokchilari hisoblanishi mumkin¹⁰.

Shuningdek, investitsiyaning mamlakat miqyosi yoki undan tashqarida amalga oshirilishiga qarab ichki va tashqi (xorijiy) investitsiyalarga ajratiladi. Agar ichki investitsiyada bir mamlakat ichidagi qo'yilmalar nazarda tutilsa, investorlar foyda (daromad) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyatiga va boshqa turdagi faoliyat ob'ektlariga qo'shayotgan mulkiy boyliklarning va ularga nisbatan huquqlarning, shuningdek, intellektual mulkka nisbatan huquqlarning barcha turlari xorijiy investitsiyalari hisoblanadi. Investitsiya – bu nafaqat moliya resurslari, shuningdek yangi texnika, zamonaviy chet el texnologiyasi, bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruvning yangicha usullari hamdir. Investitsiyalarni jalb etishda xorijiy investorlarga ularning mamlakatda erkin faoliyat yuritishlari uchun qulay investitsiya oqimini yaratib berish zarurligini ham hisobga olish lozim. Bu mas'uliyatni avvalo davlat o'z zimmasiga olishi kerak.

O'zbekiston iqtisodiy ravnaqini hisobga olgan holda mamlakatda qulay investitsion sharoitni barpo etish, hamda samarali ravishda chet el kapitalini qabul qilish tizimini ishlab chiqish zarur.

Investitsiya oqimi – bu keng ma'noli tushuncha bo'lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammo va masalalarni mujassamlashtiradi. Investor tomonidan ma'lum bir mamlakatga kapital ajratishning qulay va noqulay tomonlari

⁹ Турсунов Б.М. Внешне экономическая деятельность и привлечение иностранных инвестиций. Курс лекций. -Т.: «Узбекистан», 2008. с.-46.

¹⁰ А.Ўлмасов, А.Вахобов. Иқтисодиёт назарияси: Дарслик. –Т.: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош тахририяти, 2006. 317-бет.я

baholanadi, shu bilan birga o'z sarmoyasini kiritmoqchi bo'lgan mamlakat mafkurasi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ahamiyat beriladi.

Xorijiy kapital qabul qiluvchilar, ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida bo'lgan mamlakatlar investitsiya oqimi modelini ishlab chiqishi lozim. Bu model ular uchun har tomonlama asoslangan tashqi iqtisodiy aloqalarni aniqlab beruvchi vosita vazifasini o'taydi. Uning asosiy yo'nalishlari xorijiy sarmoya qabul qiluvchilar uchun quyidagilardan iborat:

- xorijiy investorlarga ta'sir ko'rsatuvchi omillar to'g'risida aniq tushunchaga ega bo'ladi;

- o'z mamlakatidagi iqtisodiy holatni chuqurroq baholash imkoniyatini beradi;

- xorijiy sarmoyadarning xulq-atvorini har tomonlama chuqur bilishga imkoniyat yaratadi.

Demak, o'tish davrida bo'lgan mamlakatlar uchun xorijiy investitsiyalar quyidagi jarayonlarni ta'minlovchi omil hisoblanadi:

- iqtisodiy va texnik jarayonni jadallashtiruvchi;

- ishlab chiqarish apparatini yangilovchi va modernizatsiyalovchi;

- ishlab chiqarishni tashkil qilishning ilg'or usullariga erishuvchi;

- bozor iqtisodiyoti talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlash.

Bu esa yana bir bor qulay investitsion sharoitni yaratish faoliyati hamda uni har tomonlama tartibga solish, maqsadga muvofiq holda yo'naltirishdan iborat bo'lgan investitsiya siyosatining o'tish davrida bo'lgan mamlakatlardagi ahamiyati juda katta ekanligini ko'rsatadi.

II- BOB. “YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI INJINIRING KOMPANIYA”si MOLIYAVIY VA IQTISODIY HOLATI TAHLILI

2.1. “YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI INJINIRING KOMPANIYA”SI tavsifi va uning tashkiliy tuzilmasi

Toshkent shahar hokimligi qoshidagi “Yagona buyurtmachi xizmati” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kapital qurilishda xo‘jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi” 395 sonli qarori hamda Toshkent shahar hokimligining 912-sonli qaroriga asosan 1995-yilda tashkil etilgan.

Buyurtmachi hizmati vazifasini injenering kompaniya tomonidan amalga oshiriladi.

Kompaniya Toshkent shahar hokimligining qurilish obektlarida markazlashtirilgan manbalar hisobiga qurilayotgan obektlar qurilishini boshqirish va tehnik kuzatuv funksiyalarini amalga oshirishda va shuning bilan birga obektlarni foydalanishga tayyor holda topshirilishi qonunga asosan shartnomalar asosida qurilayotgan obektlarda buyurtmachi vazifasini bajaradi.

Kompaniya o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qonunlariga va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va farmoyishlariga, Vazirlari Mahkamasiga hamda Toshkent shahar hokimi qarorlariga mazkur nizom amal qiladi.

Kompaniya o‘z faoliyatida injenering xizmatini ko‘rsatadi.

Kompaniya tuzgan shartnomalarga muvofiq o‘z vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha investitsiya jarayoni qatnashchilari ishini muvofiqlashtiradi.

Kompaniyaning asosiy vazifalari

Quyidagilar kompaniyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- shahar miqiyosida turar-joy qurilishi obektlarida buyurtmachi vazifasini amalga oshirish;
- ishlab chiqarish quvvatini va ijtimoiy soxa obektlarini mo'ljallangan muddatlarda foydalanishga topshirish prognozining bajarilishini taminlash;
- loyiha yechimlarini samaradorligini taminlash, arxitektura va shaharsozlik darajasi talablariga rioya qilish;
- kapital qo'yilmalar samaradorligini oshirish, investitsiya sikli muddatlarini qisqartirish.

Kompaniyaning asosiy funksiyalari

Yuklangan vazifalarga muvofiq Kompaniya quyidagi vazifalarni bajaradi:

A) Prognozashtirish sohasida:

- Toshkent shahar xokimligining topshirig'iga ko'ra 3 yillik davrda Respublika Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihaning parametrlarini aniqlash xamda keyinchalik belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligiga taqdim etish uchun unga yangi loyihalarni kiritish bo'yicha takliflar tayyorlaydi.
- tasdiqlangan invstitsiya dasturlari va markazlashtirilgan manbalarining ajratilgan limitlari asosida keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishish uchun qurilishlarning aniq mo'ljalli ro'yxati loyihasini tayyorlaydi.
- pudratchi bilan kelishgan holda qurilishni titul ro'yxatini tasdiqlash uchun Toshkent shahar xokimiyatiga kiritadi.
- investitsiya loyihalari joylashtiriladigan tumanlarda muxandistlik kommunikatsiyalarni rivojlantirish masalalarini ko'rib chiqish va hal etishda ishtirok etadi.

V) Loyihalashtirish sohasida:

- loyihalarini ishlab chiqish uchun birlamchi ruxsat beruvchi hujjatlarni va tanlov hujjatlarini tayyorlaydi, loyiha bosqichida loyihalashtirish bo'yicha ishlarga buyurtma tanlov asosida joylashtirishni tashkil etadi.

- loyihalashtirishga topshiriq beradi.

- tanlov savdosi g'olibi bilan shartnoma tuzadi hamda loyihani loyiha xujjatlarini berish ishlarining kalendar jadvali kelishiladi.

- tegishli tashkilotlar bilan eksperimental , ilmiy tekshirish , arxiologiya ishlari va boshqa ishlarni bajarishga shartnomalar tuzadi.

- bajaruvchilar tomonidan shartnoma majburiyatlariga rioya etilishini nazorat qiladi.

- loyiha va tanlov xujjatlarini ekspertizadan o'tkazilishini , tekshirilishini tasdiqlanishini, shuningdek ekspertizaning vakolatli organlari xulosalari hamda pudrat tashkilotlarining muloxazalari bo'yicha tegishli xujjatlarga tuzatish va qo'shimchalar kiritilishini tashkil qilishdan iborat.

E) Qurilish maydonini tayyorlash bo'yicha:

- qurilish uchun maydon tayyorlash va ajratish bo'yicha komissiyalar ishida ishtirok etadi.

- qurilish uchun yer uchastkalari ajratish to'g'risidagi xujjatlarni rasmiylashtiradi va tegishli organlar va foydalanish xizmatlarining ruxsatnomalari belgilangan tartibda pudratchilarga beradi.

- elektr uzatilishining havodagi liniyalari va aloqa liniyalari hududida, temir yo'llar o'tgan joylarda, qurilish maydonida joylashgan yer osti kommunikatsiya tarmoqlari o'tadigan joylarda ishlarni bajarish.

- qurilish davrida shaharlarda va boshqa axoli punktlarida gaz, suv, bug' taminoti bo'lmagan taqdirda qurilishni tashkil etish loyihasiga muvofiq mavjud manbalardan olinadigan elektr energiyasi, suv, gaz, bug'dan foydalanish.

- o'rmonni kesish va daraxtlarni o'tkazish, zarur xollarda esa daraxtlarni kesishga pudrat qurilish tashkilotlariga ruxsat berish

- obyekt qurilishi xududidagi buzulishi, boshqa joyga ko‘chilishi, rekonstruksiya qilinishi kerak bo‘lgan uylarda aholini ko‘chiradi.

- fuqarolarga zaruriyat bo‘lganda amaldagi qonun xujjatlarida nazarda tutilgan obyektning umumiy qiymati doirasida olib qo‘yiladigan meva, rezavor meva daraxtlari va ekinlar qiymatini, shuningdek fuqarolarga xususiy mulk xuquqi bilan tegishli bo‘lgan buzilishi kerak bo‘lgan turar joy va imoratlar qiymatini qoplaydi.

- davlat tashkilotlariga, xususiy tashkilotlarga va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan buziladigan binolar va inshootlarning qoldiq balans qiymati hisob kitobini, shuningdek obyekt qurilishi loyihasiga kiritilishi asosililigini tekshiradi.

- buziladigan imoratlar, inshootlardan chiqadigan qaytariladigan materiallar, shuningdek qo‘shimcha ravishda qazishda olinadigan materiallar sotilishini taminlaydi.

- qurilish uchun geodezik ajratish asosi barpo etadi.

- obyektlarni Davlat Arxitektura qurilish nazorati organlarida ro‘yxatdan o‘tkazadi, shuningdek pudrat tashkilotlarida faoliyat turiga va ishlarni bajarilishiga litsenziyalar, mualliflik va texnik nazorat borligini tekshiradi xamda qurilish montaj ishlarini bajarilishiga ruxsatnoma oladi.

- obektni loyihalashtirish va foydalanishga tayyor holda qurilish ijrochilarini tanlash bo‘yicha tanlov savdolarini tashkil etadi va o‘tgazadi.

- loyiha bajarilishini va pudrat ishlariga loyiha va pudrat tashkilotlari, tanlov savdolarining g‘oliblari bilan belgilangan tartibda shartnomalar tuziladi.

- tanlov asosida belgilangan yoki belgilangan tartibda aniqlangan kelishilgan shartnomaviy narx asosida qurilishlarning aniq va titul ro‘yxatini tuzish va aniqlashtirish uchun takliflar kiritadi.

“Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasida faoliyat ko‘rsatuvchi bo‘limlar.

1.Boshqaruv apparati

2. Loyiha va qidiruv ishlariga dastlabki ruxsatnoma olishni tayyorlash bo‘limi.

3.Loyihani boshqarish va qurilishni texnik nazorat qilish bo‘limi.

- 4.Marketing va prognozlashtirish bo‘limi.
- 5.Moliyalashtirish va xo‘jalik shartnomalar munosabatlari bo‘limi.
- 6.Hisobxona.
- 7.Umumiy bo‘lim.
- 8.Baza

2.1-jadval

“Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniya”sida faoliyat ko‘rsatuvchi xodimlar haqida ma`lumot

Ko‘rsatkichlar Nomi	Yil oxiriga ro‘yxatdagi xodimlar soni	Shu jumladan						
		Rahbarlar	Mutahasislar	Texnik Xodimlar	Xizmat Ko‘rsatuvchi xodimlar	Ishlab chiqarish xodimlari	Ayollar	Erkaklar
Jami xodimlar:	81		-	-	-	-	26	55
Shu jumladan:								
Oliy ma’lumotli	65	7	31	20	7	-	20	45
O‘rta ma’lumotli	16	-	8	5	3	-	6	10
O‘rta va to‘liqsiz o‘rta	-	-	-	-	-	-	-	-
Yoshi								
16 yosh	-	-	-	-	-	-	-	-
16-17 yosh	-	-	-	-	-	-	-	-
18 yosh	-	-	-	-	-	-	-	-
19-24 yosh	-	-	-	-	-	-	-	-
25-29 yosh	8	-	6	-	2	-	1	7
30-39 yosh	31	-	20	8	3	-	12	19
40-49 yosh	29	7	15	4	3	-	9	20
50-54 yosh	10	-	6	4	-	-	4	6
55 yosh va undan katta	3	-	3	-	-	-		3

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalarning roli va ahamiyati benihoya kattadir. Investitsiya tushunchasi investitsion loyihalarni amalga oshirish natijalarini kelajakdagi iste'mol va shaxsiy ehtiyojlar uchungina emas, balki uzoq kelajak uchun ham zarurdir.

Investitsion loyihani qabul qilishda esa uning foydaliligi va harajatlarning o'zaro nisbati hisobga olinadi. Investitsiyaning foydalilik darajasi uni qo'llashdan kutilayotgan sof foyda me'yori bilan o'lchanadi va sarmoyador uni olishga umid bog'laydi. Harajatlar esa qarz mablag'larini jalb etish uchun sarf qilinadigan foizlar miqdoridir.

Tabiiyki sarmoyador o'z kapitalini kutilayotgan sof foyda me'yorining qarz mablag'lari uchun to'lanadigan foiz miqdorlaridan oshirishni ta'minlaydigan loyihalarga yo'naltiradi. Shuning uchun kutilayotgan sof foyda me'yori va to'lanadigan foiz summasi investitsiyada harajatlarni belgilovchi ikki asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Investitsion loyihani qabul qilishda turli xil boshqa omillar ham ishtirok etadi: investitsiya turi, investitsion loyiha qiymati, ko'plab o'xshash loyihalarning mavjudligi, moliyaviy resurslarning chegaralanganligi, tavakkalchilik va boshqalar.

Tadbirkorlik sub'ektlari uchun investitsiyalashning yakuniy natijasi uning foydaliligidir. Shuning uchun ham investitsion loyihani qabul qilishda quyidagi omillar hisobga olinadi:

1. Loyihaga kapitalni jalb etishda undan foyda olish mo'ljallanadi.
2. Kutilayotgan bu foyda bankda pul saqlashdan olinadigan foizdan ko'ra ko'proq daromad manbai bo'lishi mumkin.
3. Investitsiya rentabelligi inflyasiyaning o'sish sur'atidan yuqori bo'lgan taqdirdagina, u maqbul hisoblanadi.

Shunday qilib, investitsion loyiha quyidagicha:

- loyihaning arzonligi;
- inflyasion yo'qotish tavakkalchiligining past darajada bo'lishi;
- kapital quyilmalarni qoplash muddatining qisqaligi;

- yuqori rentabellik;

- foydaliroq bo'lgan boshqa o'xshash loyihalarning majud emasligi va hokazo mezonlar orqali o'zining afzal jihatlarini namoyon eta oladi va shundagina u qabul qilinishi mumkin.

2.2-jadval

“Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniya”sida bitta xodimning ish vaqti balansi

№	Balans ko'rsatkichlari	Ko'rsatkichlar ahamiyati yoki uni hisoblash tartibi
1	Kalendar vaqt fondi, kunlarda	365
2	Dam olish va bayram kunlari soni	52 x 2 Q12
3	Kalendar ish kuni miqdor	Ish rejimiga muvofiq (1-s-2s)
4	Ishga chiqmagan kunlar soni	Rejadagi ishga chiqmagan kunlarni baholashga muvofiq (3s.-4s.)
5	Haqiqatda ishlagan kunlar soni	Rejaviy hisob-kitoblarga muvofiq ravishda
6	Ish kuni davomiyligining qisqarishi sababli ish vaqtining yo'qotilishi, soat	
7	Ish kunining o'rtacha davomiyligi, soat	8
8	Foydali vaqt fondi, soat	Yo'qotishlarni hisobga olgan holdagi normal davomiylik (7s. x 5s.)

Investitsion loyihaning integral iqtisodiy samaradorligini hisoblash uchun mo'ljallangan g'arbiy usul investitsion loyihaning amal qilish davri mobaynida diskontli (muddati to'lmagan pul qaytimi) pul tushumi va to'lovlari oqimi o'rtasidagi farq sifatida hisoblanadi. Misol tariqasida olinayotgan korxonada investitsion loyihaning amal qilish davri 3 yilga mo'ljallangan. Yangi texnologiya mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali olinadigan daromadni ko'paytirishni ta'minlashni ko'zda tutmoqda. Mo'ljallanayotgan daromad (Yalpi tushumdan ekspluatatsiya harajatlarini, ya'ni elektr energiyasi, ishchi kuchi,

materiallar sarfi, muayyan soliqlar va boshqalarni ayirish bilan) 13 mln. so'mga teng bo'lishi kutilmoqda.

Kutilayotgan sof foyda investitsion loyiha uchun yo'naltirilgan mablag'ni (10 mln. so'm) qo'shimcha foyda olinishi ham hisoblanmoqda.

Shunday qilib, kutilayotgan sof foyda me'yori 30% (3 mln. so'm) 10 mln.so'm bo'lishini aniqlaymiz. Korxona bu summaga investitsiyadan olingan daromad sifatida qaraydi va bu me'yorni m harfi bilan belgilaymiz.

Qarz uchun foiz to'lovlarini investitsion loyiha va undan kutilayotgan foyda me'yori o'rtasidagi tugal bog'liqlik sifatida qaraymiz va quyidagi hisoblarni ilgari suramiz: agar kutilayotgan sof foyda me'yori (10%) qarz uchun foiz to'lovidan (masalan, 25%) yuqori bo'lsa, u holda investitsiya rentabelli bo'ladi. Agar qarz uchun foiz to'lovi (masalan, 35%) kutilayotgan sof foyda me'yoridan (30%) yuqori bo'lsa, u holda investitsion loyiha samarasiz bo'ladi.

Agar korxona qarz olmay, investitsiyani moliyalashda o'z ichki mablag'laridan foydalansa, bizning hisobimizcha, bu holda ham ijobiy holat kuzatilmasligi mumkin. Chunki korxona bankdagi o'z jamg'armasidan mablag'ni investitsion loyiha uchun qo'yar ekan, u yana bankda turgan mablag'i hisobidan olinishi mumkin bo'lgan bank foizi yoki boshqa daromad manbaidan mahrum bo'ladi. Shuning uchun investitsion loyihani qabul qilishda uning mazkur yo'qotishlardan yuqori daromadli bo'lishi eng asosiy o'rinda turishi lozim.

Investitsion loyihani qabul qilishda nominal foiz miqdori emas, balki uning real foiz miqdori muhim ta'sir kuchiga egadir. Chunki nominal foiz miqdori joriy baholarda aks ettirilsa, real foizlar esa doimiy yoki bahoning inflyasiyalashuvini hisobga olgan holda yuritiladi va u quyidagicha ifodaga ega bo'lishi mumkin:

Inflyasiya sharoitida hisob-kitoblar bir qadar boshqacha tus oladi. Misol uchun 10 mln. so'mlik investitsiya kutilayotgan sof foyda me'yorini 30 foiz real qiymatda (inflyasiyani ham hisobga olgan holda) ta'minlash zarur. O'rnatilgan foiz miqdori esa 35 foizni tashkil etmoqda. Bir qarashda bu holat investitsiyaning samarasiz ekanini ko'rsatadi. Biroq taxminiy hisoblashimizcha, inflyasiyaning yillik o'sish suratini 15 foiz deb qabul qilsak, bunday surat sarmoyadorning o'z

mablag'larini qaytarib olishga imkon beradi. Chunki inflyasiya ta'siri bilan xarid imkoniyati 15 foizga kamaydi. O'rnatilgan foiz miqdori 35 foiz bo'lgan taqdirda ham haqiqiy foiz to'lovi 20 foiz (35-15 foizni) tashkil etmoqda. 20 foizli haqiqiy foiz to'lovini kutilayotgan sof foyda me'yori (30 foiz) bilan taqqoslaganda, investitsion loyiha rentabelli ekanligini ko'ramiz va uni qabul qilish mumkin bo'ladi.

Agar korxona uchun investitsion loyihani mablag' bilan ta'minlashning imkoni cheklangan bo'lsa, u holda qarz mablag'lardan foydalanish orqali loyiha moliyalashtiriladi. Biroq bu holda investitsion loyiha samaradorligini hisoblash birmuncha o'zgaradi. Quyida keltirilayotgan raqamlar aynan qarz mablag'larni uzish bilan bog'liq holda investitsion loyihaning amal qilish davri istiqbol ko'rsatkichlarini ko'rsatadi.

Hisoblashlar ko'rsatadiki, qarz mablag'lar investitsiyaning 80 foizga yaqinini tashkil etmoqda va bankning qarzlarini qaytarish orqali investitsion loyihaga yo'naltirilgan mablag'lar ham qoplanib bormoqda.

Investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda biz taklif etayotgan uslubiy yondashish, fikrimizcha, amaliyotda qo'llanilayotgan usuldan quyidagi jihatlarga ko'ra farqlanishi mumkin:

1. Taklif etilayotgan usulda investitsion loyiha iqtisodiy samaradorligini baholash amallarini bajarishda tahlilchi oddiy hisoblashlarga asoslanadi.
2. Loyiha iqtisodiy samaradorligini aniqlashda diskontli koeffitsientlarda bo'lgani kabi jadallashtirilgan me'yorlar tizimini ishlab chiqishga hojat qolmaydi.
3. Mazkur usulda har bir investitsion loyihaga individual yondashiladi va diskontli me'yorni qo'llashdagi kamchiliklardan holi bo'ladi.

Bu yerda shunga ham e'tibor berish lozimki, investitsion loyihani qo'llashdan kutilayotgan sof foyda me'yori qarz foizlari summasidan yuqori bo'lgandagina u rentabelli bo'ladi.

“Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniya”sida xodimlar bilan ishlash, ularning boshqaruv samaradorligi, boshqaruv jarayoni va boshqaruv faoliyatining natijasi tushuniladi. Agar boshqaruv faoliyatining oxirgi natijasi

jamoa faoliyatining oxirgi natijasi bilan to'g'ri keladi deb hisoblansa , aytish mumkinki, boshqaruv jarayoni samaradorligi murakkab ko'p qirrali, ijtimoiy iqtisodiy kategoriyadir. U boshqaruvning deyarli barcha tomonlarini e'tiborga oladi va boshqaruv jarayonida yuz beradigan iqtisodiy- ijtimoiy, tashkiliy, marketing, texnologik va boshqa munosabatlarning muxim aloxida tavsiflarini yoritib beradi.

Boshqaruv tizimi samaradorligiga quyidagilar kiladi;

- boshqaruv xodimlari mexnat samaradorligi;
- boshqaruv apparatining boshqaruv faoliyati yoki uning aloxida bo'limlari va tarmoqlari samaradorligi;
- boshqaruv jarayoning samaradorligi; (aniq boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirish)
- boshqaruv tizimlarning samaradorligi
- boshqaruv mexanizmining samaradorligi (uslublar, rahbatlar, rejali boshqaruv shakillari)

Boshqaruv apparatini mexnat unumdorligida muxim xolat sifatida ishchilarning umum talim darajasini va malakasini oshirish, moddiy maishiy sharoitini yaxshilash va boshqalar nazarda tutiladi. Iqtisodiy samaradorlik boshqaruvni takomillashtirishda boshqaruv apparatining mexnat va moddiy xarajatlarni kamaytirish, ijtimoiy iqtisodiy omillarni qo'llash, yani boshqaruv xodimlarning mexnat faolligini oshirish, xodimlar qo'nimsizligini kamaytiruvchi va ishlovchilarning mexnat sharoitlarini yaxshilovchi tadbirlarni joriy qilish muxim ahamiyat kasb etadi.

Amaliyotdan shu narsa ma'lumki, korxonalarni boshqarishning tuzilmasi yuqori darajada samarali bo'lib, boshqaruvni markazlashtirishni qisqartirish hamda kichik va o'rta korxonalarning ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi ahamiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshqaruv tizimini takaomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri – korxonaning funktsional xizmatlari va bo'limlari faoliyatini ortiqcha tuzilmaviy bo'linmalarni tugatish, xizmat ko'rsatuvchi bo'limlarni optimallashtirish, birlamchi

hisobga olish hamda hisob-kitob va boshqa boshqaruv amallarini soddalashtirish yo‘li orqali muvofiqlashtirishdir.

Bu yerda ishlab chiqarishni tezkor boshqarishning ko‘plab funktsiyalarini avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirish imkonini beruvchi, boshqaruvning yangi texnikasidan, ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan turli xil hisob-kitob va tahlil vositalaridan foydalanish katta ahamiyatga ega.

Boshqaruv tizimini takomillashtirishda texnik vositalar, boshqaruv jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, jumladan, asosidagi faoliyat, boshqaruv tadqiqotlari va loyihalari o‘z-o‘zidan yoki avtomatikravishda kerakli natijalarga olib kelmaydi. Bu yerda ko‘p narsa insonlarning, ayniqsa, menejerlarning faoliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli ijtimoiy omillarning rivojlanishi, ishlab chiqarish jamoasining ishlab chiqarishni boshqarishdagi roli kuchayishi, ayniqsa, korxonalarga boshqarishning ratsional shakllarini tanlashga keng imkoniyatlar yaratib berilgan hozirgi paytda muhim ahamiyatga ega. Mustaqillikni kengaytirish va ishlab chiqarish jamoasining ishlab chiqarishni boshqarishdagi roli o‘sishi iqtisodiy fikrlashning kerakli tomonga yo‘naltirilishiga xizmat qiladi hamda boshqarishni yaxshilashni korxona rahbaridan tashqari butun jamoaning vazifasi qilib belgilaydi.

Zamonaviy texnika vositalari va yangi usullardan tashqari korxonalarni boshqarishda ishlab chiqarish jamoalarida zarur bo‘lgan ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish ham katta ahamiyatga ega. Amaliyot ko‘rsatadiki, ijtimoiy-psixologik muhit boshqaruvning natijalari va amaliyligini yo‘qqa chiqarishi yoki aksincha kuchaytirishi mumkin

2.2. “YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI INJINIRING KOMPANIYA”SI asosiy texnik – iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar tajribasi ko‘rsatishicha, tasarrufidagi daromad ichidagi jamg‘armalar ulushi bilan iqtisodiy o‘sinh sur‘atlari o‘rtasida yaqqol bog‘liqlik mavjuddir: jamg‘armalarning eng yuqori me‘yoriga ega

bo'lganlar – Yaponiya 70-80yillarda eng yuqori o'sish sur'atlariga (20-24% gacha), Fransiya va Germaniya (11-12% ga) erishdi.

Investitsiyalar uchun moliya zaxiralarini ta'minlovchi va shu zaxiralarning iste'molchisi – xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida ziddiyat mavjuddir. Bu ziddiyatda aholi ishlab chiqarishga investitsiya qiluvchi uzoq muddatli pul qo'yishdan manfaat ko'zlaydi. Ushbu ziddiyatni uch usul yordamida hal etish mumkin:

- jamg'armalar egalari uchun jamg'arish muddatini oshirishga sharoit va rag'batlar yaratish;
- xo'jalik sub'ektlarning qisqa muddatli zaxiralariga bo'lgan talabini rag'batlantirish;
- moliya zaxiralarini taqsimlash va harakatga keltirishga hamda kapital bozorida vujudga kelgan ziddiyatlarni hal etishga qodir bo'lgan investitsiya institutlarining samarali tizimini yaratish.

Jamg'armalar o'sishining o'ziga xos omili jamiyatdagi bilimlar va ma'lumotlilik mavqiyini ortirishdir. Shu ortish bilan birga malaka va ma'lumot olish uchun pul mablag'larini investitsiyalar kuchaytirmoqda. “YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI INJINIRING KOMPANIYA”Sining investitsiyalar loyihalarini samaradorligini yaqin 10 yilga bashorat qilamiz. Bunda investitsiyalar o'zini qoplashi uchun zarur bo'lgan muddatni aniqlaymiz.

Lekin bunda pul vositalarining yillar bo'yicha kelib tushishi, sarflanishi va pullarning vaqtinchalik qiymati bo'yicha taqsimlanishini hisobga olmaydi. Ko'rilayotgan misolimizda pul tushumlari to'rtinchi yilda ham birinchi yildagidek qiymatga ega. Odatda korxona rahbariyati dastlabki yillardagi yuqori pul daromadlariga katta ahamiyat beradi. Daromadning past qiymatiga qaramasdan, rahbariyat A loyihani tanlashi mumkin. Bugungi pullar ertangilaridan qimmatliroq va bunga sabab faqatgina inflyasiya emas. Agar investor daromadni bugun olsa, ularni oborotga qo'yish mumkin, masalan, bankka depozitga qo'yishi va bank foizi sifatida anchagina pul ishlab olishi mumkin. Agar ushbu daromadni bir necha yillardan so'ng olsa, u bunday imkoniyatni yo'qotadi.


Shuning uchun investitsiyalarning samaradorligi bahosi ilmiy asoslangan, ya'ni bugungi va ertangi foydalarning notengligini, pul qiymatini ma'lum vaqt ichida o'zgartirishlarini hisobga oladigan, pul tushumlarini ko'paytirish (kompaundirlash) yoki diskontlash usullariga asoslangan hisoblanadi.

Kompaundirlash usulinig ahamiyati operatsiya oxirida investor ega bo'ladigan, pul yig'indisini aniqlashdan iboratdir. Ushbu usuldan foydalanayotganda pul oqimi hozirgi qiymatidan keyingi qiymatiga qarab olib boriladi.

Yillik foizlar yig'indisi har yili ortib boradi, shuning uchun ham boshlang'ich kapitaldan tushgan daromadga ham, oldingi yillardan tushgan foizlar daromadiga ham ega bo'lamiz.

Investitsiya loyihalarini samaradorligini bashorat qilganda asosiy muammo inflyasiya sababli narxlarning o'sishi hisoblanadi.

Inflyasiya shartlarida pul oqimlarini diskontlash uchun daromadning real stavkasini emas, balki nominal stavkasini ishlatish kerak. Inflyasiyani hisobga olish metodikasini tushunib olish uchun, real va nominal daromad stavkasi orasidagi farqni bilib olish zarur.



2.1-rasm. “Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniya”si pul oqimlarining bashorati misolida

2.3-jadval


Korxonalar investitsiyaviy strategiyasini investitsiyalar bilan ta'minlash vositalari

Korxonaning o'z mablag'lari	Byudjetdan moliyalash manbalari	Byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari	Xorijiy investorlar resurslari	Mahalliy investorlar resurslari	Xalqaro moliya institutlari va xalqaro tashkilotlar resurslari
Ishlab chiqarishni rivojlantirish fondlar vositalari	Davlat investitsiyaviy dasturi mablag'lari	O'zbekiston Respublikasi Yo'l jamg'armasi	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	Strategik investorlar mablag'lari	Jahon taraqqiyot banki kreditlari
Korxonalarning zaxira fondlari	Mintaqalarning rivojlantirish stablizatsiya fondlari	Aholi bandligiga ko'maklashish jamg'armasi	Portfelli xorijiy investitsiyalar	Portfelli investitsiyalar mablag'lari	ETTB kredit liniyalari
Asbob-uskunalarining tezlashtirilgan amortizatsiya me'yorlaridan foydalanish	Ishlab chiqarishni rivojlantirishning tarmoq fondlari mablag'lari	Qayta tuzish va rivojlantirish jamg'armalari	Investitsiyaviy banklar jamg'armalari	Tijorat banklari kreditlar va investitsiyalari	Osiy taraqqiyot banklarning kredit liniyalari
Qo'shimcha aksiyalar chiqarishdan mablag'lar	Loyihaviy munitsipal obligatsiyalar chiqarishdan mablag'lar	O'zbekiston Respublikasi pensiya jamg'armasi	Yirik investitsiyaviy mablag'lar	Jamoaviy investitsiyalash institutlari mablag'lari	YUNIDO va boshqa BTM institutlari grantlari
Korporativ obligatsiyalar chiqarishdan mablag'lar	Davlat xususiy hamkorlik doirasida ajratilgan mablag'lar	Qishloq xo'jalini sub'ektlarining lizing ta'minot fondi	Maxsus venchurli fondlar mablag'lari	Mikromoliyaviy tashkilotlar va kredit uyushmalari mablag'lari	Xalqaro moliyaviy qo'mita hamda boshqa xalqaro moliyaviy institutlar dasturlari

2.4-jadval

**“Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniya”sida
2012-2014 yillardagi xodimlarning yoshi bo‘yicha tarkibi**


Ko‘rsatkichlarning nomi	2012-yil, kishi.	2013-yil, kishi.	2014-yil, kishi
Jami xodimlar shulardan:	50	66	81
16 - 24 yosh	15	8	-
25 - 29 yosh	13	10	8
30 - 39 yosh	10	20	31
40 - 49 yosh	5	20	29
50 - 54 yosh	4	6	10
55 va undan katta	3	3	3
Shu jumladan:			
55 yosh va undan katta ayollar	2	0	0
60 yosh va undan katta erkaklar	0	0	0
Pensionerlar soni	0	0	0



**2.2-rasm. “Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniya”sida
2012-2014 yillardagi xodimlarning yoshi bo‘yicha tuzilgan
diagrammasi**

**“Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniya”sida 2012-2014
yillardagi xodimlarning lavozimi bo‘yicha tarkibi**

Ko‘rsatkichlarning nomi	2012-yil, kishi.	2013-yil, kishi	2014-yil, kishi
Xodimlar o‘rtacha soni	50	66	81
Xizmatchilar	3	4	16
Rahbarlar	2	2	7
Mutaxassislar	25	30	31
Texnik ijrochilar	14	20	20
Ishchilar	6	10	7




**2.3-rasm. “Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniya”sida
2012-2014 yillardagi xodimlarning lavozimi bo‘yicha tarkibining
o‘zgarish diagrammasi**

**“ YAGONA BUYRTMACHI XIZMATI INJINIRING
KOMPANIYASI 2012-2014 yillardagi balans aktivi natijalari tahlili**

(ming so`mda)

№	Ko'rsatkichlar	2012-yil	2013-yil	2014-yil	Farqi (+,-)	O'zgarish surati %
1	Asosiy vositalarning qoldiq qiymati	73 842,0	57 999,0	64 003,0	6 004,0	10,3
2	Uzoq muddatli investitsiyalar	1 547,0	1 547,0	1 547,0	0	0
3	Tovar-moddiy zaxiralari	8 265,0	5 994,0	7 342,0	1 348,0	22,4
4	Ishlab chiqarish zaxiralari	8 265,0	5 994,0	7 342,0	1 348,0	22,4
5	Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati	366 497,0	396 888,0	434 680,0	37 792,0	9,5
6	Kapital qo'yilmalar	278 721 473,0	490 590 349,0	689 908 638,0	199 318 289,0	40,6
7	Balans aktivi bo'yicha jami	392 291 097,0	505 050 888,0	714 280 616,0	209 229 728,0	41,2

Jadvalda **“Yagona buyurtmachi xizmati” injenering kompaniyasida** 2012-2014-yillardagi balans aktivi holati tahlili quyidagi ko‘rsatkichlarni o‘zida aks ettiradi. Demak, asosiy vositalarning qoldiq qiymati 2012 –yilda 73 842,0 ming so‘m, 2013-yilda 57 999,0 ming so‘m, 2014-yilda esa 64 003,0 ming so‘m ni tashkil etadi. 2014-yilda 2013-yilga qaraganda farq 6 004,0 ming so‘mni tashkil qilsa, foiz ko‘rsatkichida esa 10,3 % ni tashkil qiladi. Tovar moddiy zahiralari 2012-yilda 8 265,0 ming so‘m, 2013-yilda 5 994,0 ming so‘m, 2014-yilda esa 7 342,0 ming so‘mni tashkil etadi va 2014-yilda 2013-yilga qaraganda farqi 1 348,0 ming so‘m, foiz ko‘rsatkichi esa 22,4 % ni tashkil qiladi. Ishlab chiqarish zahiralari 2012-yilda 8265,0 ming so‘m , 2013-yilda 5 994,0 ming so‘m, 2014-yil 7 342,0 so‘mni tashkil qiladi, 2014-yilda 2013-yilga qaraganda 1 348,0 ming so‘mni, foiz ko‘rsatkichida esa 22,4 % ni tashkil qiladi. Asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati 2012-yilda 366 497,0 ming so‘m, 2013-yilda 396 888,0 ming so‘m, 2014-yilda esa 434 680,0 ming so‘mni tashkil qilsa, 2014-yilda 2013-yilga qaraganda farqi 37 792,0 ming so‘m ko‘proq, foiz ko‘rsatkichida esa 9,5 % ga oshgan. Balans aktivi bo‘yicha jami 2012-yilda 392 291 097,0 so‘m, 2013-yilda 505 050 888,0 ming so‘m, 2014-yilda 714 280 616,0 ming so‘m, 2014-yilda 2013-yilga qaraganda farqi 209 229 728,0 ming so‘m, foizda esa 41,2 % ni tashkil qiladi.



2.4-rasm.2012-2014 yillarning balans aktiv holati diagrammasi

2.7-jadval


“ YAGONA BUYRTMACHI XIZMATI INJINIRING KOMPANIYA”SI 2012-2014 yillardagi balans passivi natijalari tahlili

(ming so`mda)

№	Ko'rsatkichlar	2012-yil	2013- yil	2014- yil	farqi (+;-)	O'zg. nisb. %
1	Zahira kapitali	53 331,0	1 881 010,0	1 491 293,0	-389 717,0	-20,7
2	Maqsadli tushumlar	365 998 568	458 620 497	653 462 735	194 842 238,0	42,4
3	Kelgusi davr harajatlari va to'lo'vlari uchun zahiralar	409 418,0	993 996,0	1 308 373,0	314 377,0	31,6
4	Balans passivi bo'yicha jami	392 291 097,0	505 050 888,0	714 280 616,0	209 229 728,0	41,2

Jadvalda “Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniya”sida 2012-2014-yillarda balans passivi holati quyidagi ko'rsatkichlarni o'zida aks ettiradi. Zahira kapitali 2012-yilda 53 331,0 ming so'm, 2013-yilda 1 881 010 ming so'm, 2014-yilda 1 491 293,0 ming so'm, 2014-yilda 2013-yilga qaraganda farqi -389 717,0 ming so'm, foizda esa -20,7 % ni tashkil qiladi. Maqsadli tushumlar 2012-yilda 365 998 568,0 ming so'm, 2013-yilda 458 620 497,0 ming so'm, 2014-yilda 653 462 735,0 ming so'mni tashkil qilsa , 2014-yilda 2013-yilga qaraganda farqi 194 842 238,0 ming so'mga ko'tarilgan , foizda esa 42,4 % ga oshgan. Kelgusi davr harajatlari va to'lo'vlari uchun zahiralar 2012-yilda 409 418,0 ming so'm, 2013-yilda 993 996,0 ming so'm, 2014-yilda esa 1 308

373,0ming soʻmni tashkil qiladi, 2014-yilda 2013-yilga qaraganda farqi 314 377,0 ming soʻmga koʻtarilgan , foizda esa 31,6% ga oshgan. Balans passivi boʻyicha jami 2012-yilda 392 291 097,0 ming soʻm, 2013-yilda 505 050 888,0 ming soʻm, 2014-yilda esa 714280616,0 ming soʻmni tashkil qiladi, 2014-yilda 2013-yilga qaraganda farqi 209 229 728,0 ming soʻmga koʻtarilgan , foizda esa 41,2 % ga oshgan.



2.5-rasm. “YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI INJINIRING KOMPANIYA”SI 2012-2014 yillarning balans passivi holati diagrammasi

2.3. “YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI INJINIRING KOMPANIYA”si da investitsiyalar samaradorligi tahlili

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xoʻjalik yuritishning bozor tizimi hamda har qanday davrning muhim talabidir. Samaradorlik istalgan korxonaning iqtisodiy barqarorligi va faoliyat yuritish qobiliyatini aks ettiradi. Umuman olganda samaradorlik muayyan natijalarga erishishni anglatadi. U sarflangan xarajatlar va olingan natijalar nisbati asosida aniqlanadi. Xarajatlar qanchalik kam va natijalar qanchalik koʻp boʻlsa, samaradorlik ham shunchalik yuqori boʻladi.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi butun ishlab chiqarish samaradorligining tarkibiy qismidir. Turli darajadagi xo‘jalik faoliyatida investitsiyalarning iloji boricha ko‘proq foyda, qaytim keltirishi asosiy vazifa qilib belgilanadi.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash zarurati, qo‘shimcha kapital qo‘yilmalar kiritilishini talab qiluvchi yangi qurilish, mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta tiklash va texnik jihatdan qayta qurollantirish, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni ishlab chiqish kabi barcha hollarda yuzaga keladi. Ba’zan mahsulotlarning yangi turini ishlab chiqarish ham investitsiya va boshqa mablag‘lar kiritilishini, demak, xarajat va natijalar nisbatini avvaldan baholashni talab etadi.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirishda korxonalar ikkita asosiy vazifani hal qilishlari lozim:

birinchisi – kapital qo‘yilmalarning qoplanish muddati va daromadliligi nuqtai nazaridan, eng maqbul variant tanlash variantini yaratuvchi investitsion loyiha samaradorligini baholash;

ikkinchisi – mavjud ishlab chiqarishga ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini yaxshilash maqsadida kiritiluvchi investitsiyalar samaradorligini baholash (qo‘shimcha mahsulot ishlab chiqarish, tan narxni kamaytirish, foydani oshirish va hokazo).

Korxonadagi investitsiyalardan keladigan foydani tahlil qilish uchun albatta, aniq va isbot qilingan yo‘lni tanlash talab qilinadi. Ya’ni, birinchi navbatda, kiritilgan investitsiya kelajakda qancha foyda keltirishini aniqlash kerak.

Loyihaning hamma ishtirokchilari loyihaning nobud bo‘lmasligini hohlaydilar. Shu bilan bir qatorda ularning hech biri loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshishiga to‘liq ishonchi bo‘lishi mumkin emas, chunki istalgan haqiqiy ishda tavakkalchilik umum qabul qilingandir.

Tavakkalchilik — istalgan korxona faoliyatining sharoit tavsifidir. Jumladan, u ko'ngilsiz voqealarning mumkinligi va noaniqlikni aks ettiruvchi investitsiya loyihasiga ham xosdir.

Tavakkalchiliklarning turlari va ularning xavfini bila turib, ularning loyiha samaradorligiga salbiy ta'sirini pasaytirgan holda ularga ta'sir o'tkazish mumkin.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda kapitalning qaytishi ta'minlanganligi risklarining quyidagi asosiy turlarini inobatga olish muhimdir:

- loyihaning hayotiy emaslik tavakkalchiligi;
- soliq tavakkalchiligi;
- qarzlarini to'lamaslik tavakkalchiligi;
- qurilishni to'xtatmaslik tavakkalchiligi.

Investorlar uchun investitsiya loyihasini amalga oshirish yo'li bilan o'z kapitalini shakllantirishda soliq tavakkalchiliklarining sezilarli ta'sir kuchi alohida o'rin egallaydi. Soliq tavakkalchiligi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- loyihaning aniq muddatda ekspluatatsiyaga topshirilishi mumkin bo'lmaganligi uchun soliq chegirmasini kafolatlay olmaslik;
- soliq qonunchiligining o'zgarishi;
- loyihaning soliq ustunliklarini pasaytiruvchi soliq xizmatining qarori.

Odatda, investorlar o'zlarini soliq tavakkalchiliklaridan bitim va shartnomalarda aks ettiriladigan mos kafolatlar bilan qisman himoya qiladilar.

Shu bilan bir qatorda tugallanmagan qurilishni ham inobatga olish zarur. Texnologiya jarayoni yoki «nou-xau» ishlatilgan loyihani investitsiyalashda investor qurilishni tugatish haqida kafolatlarni talab qilishi mumkin, chunki bunday loyihalar boshida nazarda tutilganidan ancha qimmatga tushishi mumkin. Shuning uchun qurilishni boshlashdan avval loyiha qatnashchilari va investorlar qurilishni to'xtatish kafolatlari bo'yicha bitimga kelishlari lozim.

Investitsiya loyihasini texnologik baholashda u yoki bu tarmoqdagi yangi loyihaga tavsifli bo'lgan texnologik tavakkalchiliklarni ham inobatga olish lozim. Texnologik tavakkalchiliklarga quyidagilar taalluqlidir:

- loyiha tashkilotining yoʻqligi yoki uncha kata boʻlmagan ish malakasi;
 - uzoq muddatli shartnomalarning yoʻqligi;
 - oʻqitish va maxsus tayyorgarliksiz oʻz kuchiga ishonish;
 - jarima choralarisiz noaniq (muddati va miqdorisiz) shartnomalar;
 - texnik tavakkalchiliklarning yuzaga kelish sabablari;
 - loyihalashtirishdagi xatolar, texnologiya yetishmovchiligi;
 - uskunani notoʻgʻri tanlash;
 - ishlab chiqarish quvvatlarini notoʻgʻri aniqlash, pudratchilar tomonidan majburiyatlarini buzish;
 - boshqaruvidagi kamchiliklar;
 - malakali ishchi kuchining yetishmovchiligi;
 - mahalliy xodimlarning import qilingan uskuna bilan ishlash malakasining yoʻqligi;
 - loyihada koʻzda tutilgan quvvatga chiqmaslik yoki toʻla quvvatda ishlamaslik yoki ancha past sifatli mahsulot ishlab chiqarish;
 - qurilishni va toʻla quvvatga chiqishni ushlab qolish.
- Texnologik tavakkalchilikni pasaytirish boʻyicha tadbirlar:
1. Yangi loyihalarni moliyalashtirishdan voz kechish.
 2. Yangi texnologiya va uskunalarni ishlatishni minimallashtirish.
 3. Shunga oʻxshash loyihalarni amalga oshirishda yuqori bilim va malakaga ega boʻlgan loyihalashtiruvchi va pudratchini jalb qilish.
 4. Aniq shartlar va jarima choralari bilan uzoq muddatli shartnomalar tuzish.

Tavakkalchiliklarning vujudga kelish sabablari va ularni pasaytirish uslublarini koʻrib chiqish shuni koʻrsatadiki, tavakkalchiliklarni boshqarishning asosiy usullari boʻlib, ularni toʻgʻri guruhlash va tahlil qilish, oʻlchash, loyiha koʻrsatkichlarining muhim «mustahkamlik zaxiralarini» barpo qilish, sugʻurtalash va tavakkalchiliklarni loyiha qatnashchilari orasida taqsimlash hisoblanadi.

III BOB. IQTISODIYOTNING MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA KORXONA INVESTITION FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

3.1. Iqtisodiyotning modernizatsiyalash sharoitida korxona investitsiya faoliyatini rag'batlantirish

Mamlakat iqtisodiyotidagi investitsiya faoliyatining rivojlanish darajasi shu mamlakatda olib borilayotgan investitsiya siyosati va uning natijasi qanday samara berayotganligi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, investitsiya siyosatining maqsadi mavjud investitsiya faoliyatining rivojlanish istiqboliga qaratilishi tabiiydir. Bu maqsad o`zida davlatning investitsiya faoliyatini muntazam ravishda tartibga solishdan iborat bo`lgan vazifasini xam mujassam etadi.

Mamlakatimizda istiqlool yillarida qulay investitsiya faoliyati yo`lga quyildi. Bu Prezidentimiz tashabbusi va raxbarligida soxada olib borilayotgan oqilona siyosat natijasidir. Shu o`rinda yurtboshimiz tomonidan ta`kidlangan quyidagi fikrlarni keltirib o`tish joiz: "Iqtisodiyotni tarkibiy jixatdan qayta qurish, eksport imkoniyatini kengaytirish soxasida belgilangan yo`nalishlar kuchli investitsiya siyosatini o`tkazish bilangina ro`yobga chiqadi. Uzoq muddatli istiqbolga mo`ljallangan, mamlakatimizning saloxiyati, qudrati va iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini oshirishda xal qiluvchi axamiyat kasb etadigan navbatdagi muxim ustuvor yo`nalish bu asosiy yetakchi soxalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, transport va infratuzilma kommunikatsiyalarini rivojlantirishga qaratgan strategik axamiyatga molik loyixalarni amalga oshirish uchun faol investitsiya siyosatini olib borishdan iborat".

Agar tarixga nazar tashlasak, sobiq sho`rolar davridagi markazlashgan rejalitizimda "kapital qo`yilma" tushunchasi qo`llanilgan. Ayni paytda ishlatilayotgan "investitsiya" so`zi ilgarigi "kapital qo`yilma" iborasiga qaraganda ancha keng tushunchadir. Zero, "investitsiya" o`zida aniq va shu bilan birga portfel

investitsiyalarini xamda boshqa korxona va tashkilotlarga tegishli bo'lgan qimmatli qog'ozlar va aktivlar (pay, ulush, xissa kabilar)ni qamrab oladi.

Demak, "investitsiya" tushunchasining mohiyati xaqida so'zlaganda, uni jamgarish, qo'yish va daromad olishdan iborat tadrijiy jarayon sifatida qarash lozim. Zero, O'zbekistan Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'grisida"gi qonuniga ko'ra "Investitsiya faoliyati — investitsiya faoliyati sub'ektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq xarakatlar majmui" sifatida tushuniladi. Darxaqiqat, investitsiya faoliyati yuridik shaxslar, davlat va fuqarolarning investitsiyalarni amalga oshirish buyicha jami amaliy xarakatlar yig'indisidir.

Ushbu qonun me'yorlaridan kelib chiqadigan bulsak, investitsiya faoliyatini resurslarni jamgarish jarayoni bilan birga olib qaramoq lozim. Bu uning mohiyatini to'liqroq namoyon etadi. Chunki zaxiralarni investitsiya qilishdan oldin ularni jamg'arish zarur. Shuningdek, bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan xo'jalik sub'ektlari o'rtasidagi kapitalning oqimi tezlashadi va bu jarayonda bir xo'jalik sub'ektlarning resurslarni jamgarishi boshqalari uchun investitsiya qo'yishdan iborat bo'ladi. Masalan, xo'jaliklar ko'p xollarda investitsiya qo'yish uchun o'z mablag'lari yetmaganda qimmat baho qog'ozlar chiqaradilar. Bu jarayon ular uchun resurslarni jamgarishdir, ammo qimmat baho qog'ozlarni sotib oluvchilar uchun esa investitsiya qo'yishdir. Bu holat investitsiya faoliyatiga investorlarning resurslarni jamgarish va ularni qo'yish bilan bog'liq xarakatlari majmuasi deb qarashga asos buladi.

Ma'lumki, investitsiya faoliyati kapital, tadbirkorlik, moliya, innovatsiya, ijtimoiy, iste'mol va boshqa investitsiyalarning xamma turlari bilan bog'liq bulib, odatda, soliqlarning fiskal va tartibga solish funksiyalaridan foydalanish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Mamlakat eksport saloxiyatini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, davlat byudjetining daromad qismini soliqlar bilan ta'minlashda investitsiyalar, shu jumladan, xorijiy investitsiyalarni keng ko'lamda jalb qilish va investitsiya

faoliyatini ragʻbatlantirish orqali qoʻshma korxonalarni barpo etish xamda ular faoliyatini rivojlantirishga iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omili sifatida qaralishi kerak.

Investitsiyalarning jalb etilishi milliy iqtisodiyotdagi bir qator iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal qilishda oʻz samarasini beradi. Jumladan:

- ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi ilgor texnologiyalar bilan jizohlash asosida ishlab chiqarish darajasini oshirish;
- ishlab chiqarilgan maxsulot (bajarilgan ish, koʻrsatilgan xizmat)larning sifatini taqsmillashtirish va ularning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini taʼminlash;
- aholining mehnatga layoqatli qismini ish bilan taʼminlash, ularning kasbiy maxoratlarini oshirish xamda iqtisodiy daromadlarini koʻpaytirish;
- eksport hajmini oshirish orqali valyuta tushumlarini koʻpaytirish;
- byudjetga toʻlaydigan soliqlar, ijara majburiyatlari va boshqa toʻlovlar hisobiga byudjet daromadlarini shakllantirish va xokazolar.

Republikamizning barcha xududlarida zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jixozlangan yangi korxonalarni barpo etish va rekonstruksiya qilishda, albatta, ichki investitsiyalar bilan bir qatorda xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishi xam muxim oʻrin tutadi.

Shu boisdan xam bunday faoliyatni va tashkil etiladigan korxonalarni ragʻbatlantirish asosan soliq imtiyozlari orqali amalga oshiriladi. Chunki xar bir investor oʻz sarmoyasini biror xududga kiritar ekan, uni befarq qoldirmaydigan va eʼtiborini tortadigan asosiy masala u yerda amal qilayotgan soliq qonunchiligi xamda soliqlardan berilayotgan imtiyozlar masalasidir.

Bu tadbirlarni toʻlaqonli amalga oshirish uchun xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarga soliq imtiyozlarini joriy etishda quyidagi masalalarga aloxida eʼtibor qaratilganligini taʼkidlash lozim:

- soliq imtiyozlari samarali qoʻllanilishiga aks taʼsir etuvchi omillarni hisobga olish;

- investitsiya faolligini kuchaytirish maqsadida berilayotgan barcha imtiyozlarni bir paytda taqdim etish;

- qo'shma korxonalarni rag'batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatini cheklab qo'yishning va raqobat muxiti buzilishining oldini olish;

- qo'shma korxonalar ishlab chiqargan tayyor maxsulot tarkibida maxalliy xomashyo resurslaridan foydalanganlik darajasiga qarab ularga soliqlardan ma'lum yengilliklar berish;

- soliq imtiyozlarining joriy etilishi byudjet daromadlariga va shaxsiy iqtisodiy manfaatlarga zarar yetkazmasligi lozim.

Qo'shma korxonalarga berilayotgan imtiyozlar davlat byudjetining daromadlar xajmiga sezilarli ta'sir qilishi tabiiy. Ammo bunday imtiyozlar evaziga korxonalar ixtiyorida qolgan mablaglardan samarali foydalanish, qayta investitsiya qilish va faoliyatni rivojlantirish orqali kelajakda byudjet daromadlarining barqarorligini ta'minlash ko'zda tutiladi.

Iqtisodiy o'sishga erishish uchun nafaqat investitsiya hajmini ko'paytirish, balki ular yo'nalishini va tuzilmasini to'g'ri tanlash xam muxim ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalash uchun shunday ishlab chikarish turlari va korxonalarni tanlash zarurki, ular tezda o'zini qoplab, yuqori darajada iqtisodiy va texnologik samara bera olsinlar. Bunday holatda investitsiyaning tezda qaytarilishi va qanchalik samaradorligi muxim ahamiyat kasb etadi. Bu investitsiya jarayonini jonlantirish uchun turtki berish, keyinchalik esa investitsiyalash uchun afzal tarmoqlar va xo'jalik yuritish sub'ektlarini tanlashga imkoniyat yaratishi mumkin. Sarmoya kiritishni rag'batlantirish odatda soliq stavkalari miqdorini o'zgartirish, imtiyozlar va sanksiyalar qo'llash, soliq kreditlari berish, to'lov muddatlarini kechiktirish va boshqa yo'llar bilan amalga oshiriladi.

Jahondagi ko'pgina mamlakatlarda soliqlarning investitsiya faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan tartibga solish funksiyasidan samarali foydalanadi. Davlat tomonidan investitsiya faoliyatini boshqarish soliq tizimini soddalashtirish;

amortizatsiya siyosatini amalga oshirish; kredit siyosatini yuritish; yer xamda boshqa tabiiy boyliklardan foydalanish shart-sharoitlarini aniqlash va boshqalarni xam o`z ichiga oladi.

O`zbekistonda bugungi kunda davlat investitsiya siyosati quyidagi o`ziga xos ikki yo`nalishga tayanadi:

- soliq yukini yengillashtirish, mablag`larni ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratish;
- mablag`larni davlat byudjeti orqali to`plash va investitsiya dasturlarini amalga oshirish.

O`zbekistonda investitsiya siyosatini amalga oshirish uchun mas`ul bo`lgan tashkilot Moliya vazirligidir. Aynan ushbu vazirlik boshqa davlat tashkilotlari, organlari, banklar va kompaniyalar bilan xamkorlikda davlat investitsiya siyosatini amalga oshiradi va boshqarib boradi.

3.2. Korxonalarda investitsion faoliyatni boshqarish samaradorligini oshirish yo`llari

O`zbekistonda investitsion faoliyatni boshqarish samaradorligini oshirish yo`llari asosida mamlakatimiz investitsion jozibadorligi uchun keng ko`lamda ishlar bajarilmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotiga chet el investorlarni jalb etish uchun qulay shart sharoitlar yaratish, ularni huquqiy himoya qilishning amaliy mexanizmlarini joriy etish va investitsion muhitni yanada yaxshilash iqtisodiy rivojlanish sohasidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O`zbekiston iqtisodiyoti bugun jahon iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylandi. Mamlakatimiz eksport salohiyati yildan-yilga oshmoqda, tashqi bozorga xom-ashyo emas, yuqori qo`shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar yetkazib berilmoqda.

Aytish kerakki, O'zbekiston ulkan xorijiy investitsiyalar yo'naltirilayotgan mamlakatlar guruhiga kirish uchun barcha shart-sharoitlarga, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun bir qator qulayliklarga ega. O'zbekiston jahon xamjamiyati oldida o'zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, dunyo haritasidagi geografik joylashishi, tabiiy resurslarning tarkibi va zahirasi, hukumat olib borayotgan iqtisodiy siyosat va boshqalar bilan muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi kunda O'zbekistonning investitsion salohiyatini oshirish masalasiga iqtisodiy o'sishni ta'minlash nuqtai nazaridan katta e'tibor qaratilmoqda. Investitsiyalarning mavjudligi va yetarli darajadaliği – iqtisodiyot rivojlanishini asosiy shartidir. O'zbekistonning kelajakda rivojlanishining asosiy omillaridan biri – bu jalb etilgan va samarali o'zlashtirilgan investitsion resurslar miqdori hisoblanadi. Mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va oqilona foydalanishga imkon beruvchi xo'jalik mexanizmini shakllantirish, hamda investitsion jarayonlarni boshqarishni takomillashtirish – bu davlatimizning eng asosiy strategik vazifalaridan biridir.

O'zbekistonda mustaqillik yillari davrida olib borilgan iqtisodiy islohatlar tufayli qulay investitsion sharoitlar yaratilgan. Mamlakatda kapital investitsiyalarning kengayishiga katta e'tibor berilmoqda, ya'ni asosiy kapitalni qaytadan ishlab chiqarishga yo'naltirishdir.

Bugungi investitsion siyosat kredit qo'yilmalarni jalb etishni ko'paytirishga qaratilgan bo'lib qolmay, balki to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarga qaratilgandir. Ular xususiy sektor faotiyatini aktivlashtiradilar, tashqi bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradilar, yangi texnologiyalar va zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalanishni yengillashtiradilar.

O'zbekiston bozoriga to'g'ridan – to'g'ri chet el investitsiyalarni yanada jalb etish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- xorijiy investorlar faoliyati uchun yaratilgan sharoitlarni chuqur va tanqidiy o'rganib chiqish;

- to'g'ridan – to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora – tadbirlarni amalga oshirish;

- qimmatli qog'ozlar bozori infratuzilmasining ishonchliligini oshirish;

- yirik ishlab chiqarish korxonalari qimmbaho qog'ozlarini birlashmalar, investitsion fondlar, kompaniyalar, banklar ishtirokida xalqaro fond bozorlarida joylashtirish.

Shu bilan birga O'zbekistonda banklar faoliyat yuritish tartibini qayta ishlab chiqish kerak va banklarga investitsion faoliyatni kengaytirish bo'yicha masalalarni yuklash zarur. Birinchi navbatda investitsion loyihalarni moliyalashtirishni tashkil qilish va ekspertiza qilish bilan shug'ullanadigan tijorat banklarining maxsus bo'limlarini kuchaytirish kerak. Tijorat banklari rahbarlari investitsion siyosat olib borish mexanizmini yanada chuqur o'rganishlari zarur. Banklar investitsion jarayonlarining yanada faolroq ishtirikchilari bo'lib qolishlari kerak.

Investitsion siyosatni jadal olib borilishi nafaqat iqtisodiy o'sish va tizimni isloh qilishning muhim omillari, balki sherikchilik aloqalarini o'rnatish, ishbilarmon doiralar bilan xamkorlik qilish, turli moliyaviy institutlar bilan aloqalar o'rnatish va davlatlararo aloqalar samaradorligini oshirishga erishishdir. Biz bilamizki, investitsiya iqtisodiy o'sish omili sifatida moliyaviy – iqtisodiy rivojlanish uchun muhim dastaklardan biri bo'lib hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, O'zbekistonda investitsiya kiritish jarayonlari tezlashishi uchun qulay imkoniyatlar yaratilmoqda. O'zbekiston iqtisodiyoti yanada kuchliroq, barqarorlashgan, jahon bozorida o'z mustahkam o'rniga ega bo'lmoqda, buning asosi esa doimiy dinamik o'sishdir.

Shuningdek respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyani jalb etishni faollashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

1. Investitsiya loyihalarini malakali ekspertlar nazoratidan o'tkazish va mukammal tayyorlanishiga erishish;

2. Qo'shma korxonalar va xorijiy investitsiya ishtirokidagi boshqa turdagi tadbirkorlik faoliyatini ro'yxatdan o'tkazishdagi to'siqlarni butunlay olib tashlash.

Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni milliy korxonalarga jalb etishda quyidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilash maqsadga muvofiqdir:

1) qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash sohalarini rivojlantirish;

2) mineral xom ashyo resurslarini, shu jumladan, neft va gazni qazib chiqarish, qayta ishlash bo'yicha ekologik ishlab chiqarishni tashkil etish;

3) transport va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish;

4) iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ilm talab va jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish;

5) turizm sohasini rivojlantirish, xalqaro va ichki turizmning zamonaviy infratuzilmasini yaratishga erishish.

3.3. Qurilish korxonalarida investitsiya faoliyatini boshqarish tizimini takomillashtirish

Mustaqillikka erishilgandan boshlab, mamlakatimiz bozor iqtisodiyotga o'tishning o'ziga xos yo'lidan bormoqda. Bu yo'lda investitsiya siyosatining ahamiyati juda katta. Chunki investitsiyalar iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar, texnik va texnologik yangilanishlar, korxonalarni qayta ta'mirlash ishlarini amalga oshirishni rag'batlantiradi, mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishni, jumladan investitsiya faoliyatini tashkiliy tuzilmasini takomillashtirishga imkon beradi. Shu jihatdan mamlakatimiz o'z tuzilmaviy investitsiya siyosatini olib bormoqda.

Tuzilmaviy investitsiya siyosati hududlar, tarmoqlar va korxona investitsiya siyosatlaridan tarkib topib, ular o'zaro bog'liqdir. Hududlar investitsiya siyosati – investitsiyalarni sarflashda aholi, hudud va investor manfaatlarini hisobga olgan holda samarali ishlatishga imkon beruvchi hududda olib borilgan chora tadbirlar majmui. Tarmoq investitsiya siyosati esa bu mamlakat iqtisodiyotining

rivojlanishini ta'minlovchi tarmoqlar, sanoat maxsulotlarini eksport qilish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab – chiqarishni rivojlantirish, ilmiy texnika taraqqiyotini investitsiya yo'li bilan qo'llab – quvvatlash hisoblanadi. Davlat tuzilmaviy investitsiya siyosati yangi tarmoqlarni tashkil etish va rivojlantirish, aholining iste'mol tovarlari, ish joylariga bo'lgan talabini qisqa vaqt ichida yuqori darajada ta'minlashga erishish yo'lida quyidagi vazifalarga amal qilmoqda:

- eskirgan ishlab-chiqarishlarni sekin-asta muomaladan chiqarib tashlash;
- mahalliy ishlab chiqaruvlarni qo'llab-quvvatlash;
- to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan va talabga mos holda ishlab – chiqarish tuzilmalarini yaratish;
- mamlakatning ekologik va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va uni kuchaytirish;
- samarali, raqobatga asoslangan ishlab chiqarishlar, bozor infratuzilmasi, xizmat ko'rsatish sohasi va intellektual faoliyatlar rivojlanishini uyg'unlashtirish;
- iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish va yangi tarmoqlarni barpo etish;
- aholining ish bilan bandligini va hamda iqtisodiy faolligini oshirish;
- hududlar ijtimoiy infratuzilmasini to'liq shakllantirish.

Hozirgi sharoitda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati asosan iqtisodiyotning real sektorlari investitsion faolligini oshirish orqali ularni modernizatsiyalash, uy-joy komunal xo'jaliklari modiy texnika bazasini mustahkamlash, mavjud tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va maxalliylashtirish, dasturi doirasida mahsulot ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish hamda milliy iqtisodiyotning eksport potensialini oshirishga qaratilgan.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining asosiy yo'nalishlari orasida quyidagilarni alohida ta'kidlab ko'rsatish mumkin:

- investitsiya jalb qilish uchun xalqaro me'yorlar va konvensiyalarga mos keladigan, sanoati rivojlangan investorlari tomonidan tan olinadigan huquqiy shart-sharoitlarni yaratilishga intilish;

- respublikaga jahon darajasidagi texnologiyalarni yetkazib beradigan va iqtisodiyotning zamonaviy tuzilishini vujudga keltirishga yordam beradigan investorlar uchun ochiq eshiklar siyosatini izchillik bilan amalga oshirish;

- mamlakatning kredit qobiliyatini qo'llab – quvvatlash;

- mamlakatning ayrim mintaqalarida ijtimoiy va ekologiya muammolarini hal qilishga qaratilgan investitsiyalarni kiritishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi qurilish korxonalarida investitsiyalar samaradorligini oshirishda birinchi navbatda investitsiya faoliyati ishtirokchilari o'rtasidagi aloqalarni mukammallashtirish, o'zaro munosabatlarni tartibga solish katta samara keltiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, investitsiya faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi xuquqiy sharoitlar yaratish, ushbu faoliyatni yuritish uchun kafolatlar berish, ushbu faoliyat sub'ektlarini sug'urtalash va boshqa vositalar oraqali ijtimoiy yoki davlat manfaatlarini amalga oshirish yo`lida tashkil etiladi. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, birinchi navbatda, mamlakatning iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy taraqqiyotga erishish xamda bu orqali xalq farovonligini oshirishni ko`zda tutadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tashkilotlarda investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini takomillashtirish bilan bog`liq masalalar majmuasini jiddiy anglash va tadqiq qilishni talab etadi.

Boshqaruv faoliyatiga investitsiyalarni jalb qilish samaradorligining shakllanishining nazariy asoslari va kontseptsiyasi, ularning bozor iqtisodiyoti ehtiyojlariga mos javob beradigan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ko`rib chiqish, korxonalarda boshqarishning asosiy kontseptsiyasiga asoslangan boshqaruv tizimlarining samarali amal qilishiga olib keladi. Ushbu kontseptsiya uslubiy yondashuv nuqtai-nazaridan o`zini oqlagan hisoblanadi, zero boshqaruvni isloh etishning butun yo`li sanoat qurilishining samarali amal qilishiga ham yo`naltirilgan.

Yuqoridagi fikirlarga tayangan holada shuni takidlay olamizki **“Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniya”sida** 2012-2014-yillardagi balans korsatkichlarida 2012 yil uchun uzoq muddatli investitsiyalarning 16 881 ming som qismi o`rnatiladigan asbob-uskunalarga, 104 423 888 ming so`m qismi esa kapital qo`yilmalarga ajratildi. 2013 yil uchun uzoq muddatli investitsiyalarning 881 680 ming som qismi o`rnatiladigan asbob-uskunalarga, 107 444 988 ming so`m qismi esa kapital qo`yilmalarga ajratildi. 2014 yil uchun uzoq muddatli investitsiyalarning -429 875 ming som qismi o`rnatiladigan asbob-uskunalarga, 208 318 289 ming so`m qismi esa kapital qo`yilmalarga ajratildi. Bu

ko'rsatkichlar korxonada investitsion jarayonning to'g'ri va samarali olib borilayotganidan dalolat beradi. Korxonaning tashkiliy- huquqiy shakli nuqtai nazaridan Davlat unitar korxonasi bo'lganligi tufayli korxonaning investitsion holatini oshishi davlatga katta foyda olib keladi.

Tashkilotlarda boshqarishning markaziy muammolaridan biri bu bozor shartlariga to'liq mos keladigan boshqarishning tashkiliy-xo'jalik yuritish mexanizmini yaratish hisoblanadi. Tashkilotda, jumladan, qurilish korxonalarida boshqarishning tashkiliy-xo'jalik mexanizmlarini isloh etish aynan shu nuqtai-nazardan ko'rib chiqilmog'i zarur. Qurilish korxonalarida boshqarishni isloh etishda tashkilot tuzilmasi va undagi jarayonlarga ta'sir qiluvchi omillar yakka holda emas, balki o'zaro bog'liq holda qaralishi kerak.

Qurilish sohasi o'zining xususiyatiga ko'ra tadbirkorlikka kam moslashgan. Lekin, O'zbekistonda yaratilgan huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlar sanoat qurilishida tadbirkorlik faoliyatini olib borishda asosiy omil hisoblanadi. Sanoat qurilishida xususiy firmalarning tashkil etilishini rivojlantirish, ularda korporativ boshqarish tizimini takomillashtirish, kichik va o'rta qurilish korxonalarini hamda bozor infratuzilmasini rivojlantirish zarur.

Qurilish tashkilotlarida boshqaruv samaradorligini resurslar samaradorligining ta'minotini yaxshilash hisobiga oshirish mumkin. Qurilish tashkilotlarida ishlab chiqarishning boshqaruv samaradorligi bevosita boshqaruv jarayoni va boshqaruv faoliyati natijaviyligiga bog'liq. Bu boshqaruv tizimining takomillashuviga va boshqaruv tejamkorligini ta'minlashni asosladi.

Iqtisodiy samaradorlikning yangi metodologik va uslubiy asoslarini yaratish hozirgi boshqaruvning eng muhim vazifasi hisoblanadi. Mintaqada boshqaruv xususiyatini va bozor iqtisodiyoti tizimi xususiyatlarini hisobga oladigan samaradorlik mezonlari va ko'rsatkichlarini tizimlashtirish iqtisodiy samaradorlikni aniqlashning asosiy sharti sifatida qaror topmoqda.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qurilishda investitsion loyihalar boshqaruv tizimini takomillashtirish, ular

faoliyatini faollashtirish bilan bog'liq masalalar majmuasini jiddiy anglash va tadqiq qilishni talab etadi.

Investitsion loyihalarning makroiqtisodiy shart-sharoitlari bevosita xo'jalik sub'ektlarining bilimlarga talabini belgilaydi.

Bajarilgan bitiruv malakaviy ishi orqali quyidagicha xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

1. Investitsiyalarning nazariy asoslarini o'rganish ulardan ishlab chiqarishni tashkil etishda foydalanish xozirgi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Chunki ishlab chiqarishga nazariy yondashuvlar nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini, balki moddiy, texnikaviy. moliyaviy va insoniy resurslarning samaradorligini ta'minlaydi. Ishlab chiqarish imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga olib keladi.

2. Xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan taklif etilgan investitsion loyihalarni boshqarish kontseptsiyalarini taxlil etish natijasida ularni O'zbekiston bozor munosabatlarning shakllanish amaliyotida qo'llash o'ziga xos iqtisodiyotni boshqarishni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqarishga yordam beradi. Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida innovatsion muxitni shakllantirish va innovatsion faollikni rag'batlantirishda muammolarni kompleks tarzda yechish maqsadida ilmiy taxlilda bozor iqtisodiyotini boshqarish kontseptsiyasi maqsadga muvofiqdir.

3.O'zbekistot Respublikasida qurilish tizimida innovatsion jarayonlarni moliyalashtirish manbalari takomillashtirish, sohaga kiritilayotgan to'g'ridan-to'g'ri va xukumat kafolati ostidagi investitsiyalarni yanada rag'batlantirish, venchurli fondlarni tashkil etish lozim.

4. Qurilish tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini yangilash. uzoq muddatli lizing va ijara xizmatlarini yanada kengroq joriy etish

kelajakda maxsulot sifatini oshirishi va tannarxni kamaytirishga olib kelishi mumkin.

5. Qurilish tashkilotlari va qurilish industriyasi korxonalarining xususiylashtirilishi va aktsionerlashuvining yanada chuqurlashuvi qurilishda boshqaruv tuzilmalarining kichiklashuviga va demonopolizatsiya qilinishiga, shuningdek, xususiy pudratchi firmalarni tashkil etishni rag'batlantirishga, qurilish sohasida kichik korxona va tashkilotlarning rivojlanishiga olib keldi. Bu investitsion loyihalarni tayyorlash sifatini oshirish va shakllantirish tartibini takomillashtirish, qurilishning meyoriy-texnik bazasini yangilashni talab etadi.

6. Qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish, sohaga investitsiyalar kiritilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, import o'rnini bosuvchi eksportbop maxsulotlar bilan ichki bozorni taminlash lozim.

Xulosa qilib aytish mumkinki, korxonalarni innovatsion rivojlantirish ehtiyojlarini investitsiya bilan ta'minlash jarayonini samarali boshqarish ular egalaridan barcha yuqorida tilga olingan, nafaqat ularning raqobatbardoshligini oshirish. balki o'z zimmasiga katta ma'suliyat va tavakkalchilik yukini olib, yirik investitsiyaviy dasturlarni amalga oshirishda faol ishtrok etadigan investorlar manfaatlarini uyg'un birlashtirish imkonini beradigan ta'sir dastaklaridan moxirlik bilan foydalanishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov farmonlari va qarorlari.

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari .// I.A.Karimov. – T: O'zbekiston, 2009. 56 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlaiga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.// Xalq so'zi 2015 yil 17-yanvar N 11(6194) .

3.Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 29.07.2009*

4.“Investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun kreditlar berayotgan tijorat banklari tomonidan daromad (foyda) solig'i bo'yicha imtiyozlarni qo'llash tartibi to'g'risida”gi nizom. (Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 15avgustdagi 174-son qaroriga ILOVA).

5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “To'g'ridan – to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi chora – tadbirlar to'g'risida”gi Farmonini amalga oshirish chora tadbirlari xaqida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxhkamasi majlisining 2005-yil 2- avgustdagi 180-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami №30-31. 2005yil iyul-avgust, 30-40 b-b.

6.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 21 noyabrdagi 1855-sonli “O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida”gi qarori;

7.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 7 iyundagi 110-sonli “Investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o‘tkazish va tasdiqlash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori;

II. Asosiy adabiyotlar.

8.Imomov H. H. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. (O‘quv qo‘llanma) –T.:TDIU, 2010. - 215 b.

9.“Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish” Imomov Hamidullo Homidovich. Toshkent 2011yil (61-70)bet.

10.“Xorijiy investitsiyalarni loyihalashtirish” A.Sh. Bekmurodov,

I. Nematov, Y. K. Nematov, N.T. Kattaev. 23-25. 81betlar.

11.“Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish” R.X. Karliboyeva. Toshkent 2011y. (21-22, 49-62)betlar

12.“Xorijiy investitsiyalar” A. V. Vaxobov, Sh. X. Xajibekov, N.G. Muminov. Toshkent Moliya 2010yil.(142-149)betlar.

13.“Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish” H. H. Imomov.

14. “Investitsiya loyihalari taxlili” A.S. Jo‘raeva, D. Yu. Xo‘jamqulov. Sharq nashriyoti Toshkent 2012 yil. (18-19)betlar

15.‘Investitsiya loyihalari” M. S. Qosimov, G. Y. Muhamedjanova (46-63)betlar.

16.Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti: O‘quv qo‘llanma. –T.:

O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2008.

17. Gruzinov V. G. Ekonomika predpriyatiya. Uchebnik 2-e izd. M.: «Yuniti Dana» 2009.

18. Abdukarimov I.T. va boshqalar. Korxona iqtisodiy salohiyati tahlili.

T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2011.

19. Zaynutdinov SH. N. Menejment asoslari. T., Moliya, 2011.

20. Meskon M., Albert M., Franklin X. «Osnovi menedjmenta» M. Delo, 2010.

21. M.Q. Pardaev, I.T. Abdukarimov, V.I. Isroilov. Iqtisodiy tahlil. T., -
“Mehnat” 2009.

22. M.Sharifxo‘jaev, Y.Abdullaev «Menejment» Toshkent 2009 y.

III. Davriy nashrlar (gazeta, jurnal), statistik to‘plamlar va hisobotlar.

23.Finance and Development. A quartly magazine of the IMF. June 2008
Volume 45. number2.

24.Hal S. Scott. Scott’s International Finance, Transactions. Policy, And
Regulations, Publisher: Foundation Or. 13th edition (July 18.2009) Hardcover
608p. 8.O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi// 2013 yil 1-sonli nashri 44-bet

25.International Finance Statistics IMF 4.

26.Consulation – Staff Report: International Monetary Fund, 2007y. h 19.

IV. Internet saytlari.

27.www.finpress.ru

28. www.gov.uz

29.www.press-service.uz

30.www.salesmanagment.ru

31.www.cfin.ru

32.www.edu.ru

33.<http://www.stat.uz>

34.<http://www.exim.uz>

35.<http://www.biz.uz>

36.<http://www.lex.uz>

37.<http://www.cbr.uz>

38.<http://www.markets-today.uz>

39.<http://www.top.rbc.ru/economics>

ILOVALAR